



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 Sentyabr
№32**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
32-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
32-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 32-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 37 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Djurayeva Zilola, Q.Omonov TURKIYADA TURIZM LINGVISTIKASINING YUZAGA KELISH MASALALARI.....	7
2. Sharipova Sarvinoz Sayid qizi O‘ZBEK ADABIY TILIGA GAZETA VA PUBLISISTIK USLUBLARNING KIRIB KELISHI.....	10
3. Саидов Ёқуб Сиддиқович, Шодиқулова Назокат Шакировна ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИ ТАРАҚҚИЁТИДА ИСҲОҚХОН ИБРАТНИНГ ЎРНИ.....	13
4. Anyozova Raxima Botirovna ABADIYLIGING BARDAVOM BO‘LSIN, QADRI BALAND ONA TILIM!.....	16
5. Otabek Mavlonov INTERACTIONS BETWEEN LANGUAGE AND RELIGION	18
6. Qahramonov Aliboy Yolgoshevich NUTQ MADANIYATI – DAVR TALABI.....	19
7. Г.Н.Тожиева “МАЪНАВИЯТ” ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ЛУҒАТИ ВА УНДА КОНЦЕПТУАЛ ЛЕКСИКОГРАФИЯ	21
8. Izzatbek Rejapov HISTORICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUOCULTUROLOGY.....	23
9. Izzatbek Rejapov PHRASEOLOGY IN THE SYSTEM OF LINGUOCULTUROLOGICAL KNOWLEDGE.....	25
10. Umarova Nigora Amirjon qizi QO‘SHMA SO‘ZLARDA MOTIVATSIYALASHGANLIK VA MOTIVATSIYALASHMAGANLIK DARAJALARINING O‘ZARO MUNOSABATLARI	27
11. Umarova Nigora Amirjon qizi QO‘SHMA SO‘ZLAR SEMANTIKASIDA IDIOMATIKLIK DARAJASINING AHAMIYATI	29
12. Marhabo Ahmedova OGANIY TARIXIY ASARLARIDA ERONIY QATLAMGA OID O‘ZLASHMA QO‘SHIMCHALAR ASOSIDA SO‘Z YASALISHI.....	31
13. Marhabo Ahmedova TARIXIY ASAR ONOMASTIKASI TADQIQI MUAMMOLARI	33
14. Нуриддинова Райхона Нумоновна ИЖТИМОЙ ЖИХАТДАН ЧЕГАРАЛАНГАН ҚАТЛАМ – СЛЕНГ ҲАҚИДА.....	36



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

TURKIYADA TURIZM LINGVISTIKASINING YUZAGA KELISH MASALALARI

Djurayeva Zilola

TDSHU, Turkshunoslik fakulteti

Turk filologiyasi kafedrası

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Q.Omonov

Annotatsiya. Bugungi kunda turizm dunyo davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida yetakchi tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Nafaqat iqtisodiyotda, balki tilshunoslikda ham turizm lingvistikasi yo'nalishi vujudga kelishi alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Turkiyada qadimgi davrdan boshlab turizmning paydo bo'lishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlar natijasida turizm lingvistikasining shakllanishiga turtki bo'lgan omillar yoritib berilgan. Tilshunoslikda turizm terminologiyasining soha sifatida paydo bo'lish sabablari va terminologik qatlamning kengayishi va dunyo hamda Turkiya tilshunosligida turizm terminologiyasining o'rganilishi tahlil qilindi. Turizm tarmoqlarining ortib borishi natijasida terminologiyada yo'nalishlarning ko'payishi va terminologik qatlamning boyishi kuzatildi, dunyo turizm terminologik sohasida ingliz, rus va turk tilida olib borilgan leksikografik va filologik ishlardan namunalar keltirildi.

Tayanch so'z iboralar. Turizm, lingvistika, konseptual makon, terminologiya, globallashuv, atama, Turk Dil Kurumu

Hozirda Turkiya milliy iqtisodiyotiga yuqori daromad keltirayotgan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizm. Turizm inson tabiatini o'rganish maqsadida qilgan sayohatdan boshlangan bo'lib, bu jarayon industriyaga aylandi va ko'pchilik davlatlarning asosiy daromad manbai bo'ldi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, XXI asr turizm asri bo'lib, ijtimoiy-madaniy amaliyot, dam olish, bo'sh vaqt, biznesning modeli, xalqaro turistik aloqalar, turistik bozor, keng ko'lamli bozor, umuman tabiatdagi transmilliy, ko'p madaniyatli hodisa sifatida jadal rivojlanib kelmoqda. Xalqaro turizm hajmi 1950-yilda 25.3million kishidan 2009-yilda 903million kishiga o'sdi va Jahon Sayyohlik tashkiloti (UNWTO) prognozlariga ko'ra, 2020-yilga kelib xalqaro sayyohlik kelishi 1.6milliardga yetdi¹. Turkiya esa 2015-yilda dunyoning eng ko'p turistlari qabul qilgan oltinlik mamlakatlar qatoridan joy oldi. Chunki Oqdengiz bo'ylab dengiz turizmidan qish turizmiga, ekoturizmdan madaniyat va tarixiy, sayyohlik, ta'lim va tibbiyot turizmi kabi o'ziga xos turizm turlariga egadir. Turizm soha sifatida so'nggi o'n yilliklar davomida misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Boshqa sohalar kabi, turizm lingvistikasi ham tilshunoslikning yangi zamonaviy tarmog'i sifatida shakllandi. Turizm lingvistikasining mohiyati, xususiyatlari va ahamiyati Rossiya L.V. Hasanova, O. L.Panchenko, T.R.Zakirovlar tomonidan Qozon Federal universitetida chop etgan referatlarida yoritib berilgan² va tahlil qilingan. Turizm lingvistikasini rivojlantirish muammosi Baskova O.S kabi mualliflarning asarlarida o'rganilgan³.

Rus tilshunosligida esa E.T.Belan⁴, V.I.Vinogradova⁵lar tomonidan rus va ingliz tillari materiallari

¹ UNWTO. <http://www.unwto.org/index.php>

² L.Khasanova, O.Panchenko, T.Zakirov: Историогенез лингвистического туризма России..2019.-№2. Том3.

³ Баскова Ю.С. Лингвистические олимпиады как средство повышения уровня иностранного языка у студентов факультета сервиса и туризма// Курорты. Сервис. Туризм. 2013. №2-4(19-21). С.165-171.

⁴ Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Москва, 2009.

⁵ Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Великий Новгород, 2011.



asosida turistik terminologik sistemani shakllantirish, rus va ingliz tili turizm terminologiyasi sinxron va diaxron aspektida tadqiq etilgan.

Turkiya bugungi kunda o'chmas madaniy merosga ega mamalakatdir. O'tmishdan hozirgi davrga qadar madaniyat, san'at va savdo-sotiq markazi sifatida tanilgan bu hudud turizm sohasida ham boy tarihgaga egadir. Turizmning har bir sohasida alohida-alohida kitoblar va lug'atlar ishlab chiqilgan hamda tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Doc.Dr.Gulnaz Kurt tomonida uch tilli ya'ni "Uch dilli turizm terimlari so'zlugu"da besh mingdan ortiq turizm terminlari lug'ati yaratildi. Prof.Dr.Öcal Usta tomonidan "Turizm. Genel ve yapısal yaklaşım" kitobida umumiy turizmning kelib chiqishi haqida batafsil ma'lumotlar yoritilgan. Aynan, Turkiyada Turizm akademiyalari va Turk Dil Kurumu tashkiloti ham tashkil etilgan. Bu esa turizm va uning terminologiyasi sohasida yanada keng ilmiy va lingvistik tadqiqotlar olib borish eshigini ochadi.

Til va jamiyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi. Jamiyat hayotiga kirib kelgan barcha tushunchalar, voqea-hodisalar jamiyatning lingvomadaniy konseptosferasidan joy olishi uchun o'z til zaxirasi bilan bir qatorda o'zga tillarga ham murojaat qilinadi va so'zlar o'zlashtiriladi¹. Bu esa, o'z navbatida, tilning lug'at qatlami yangi leksik birliklar bilan boyishini hamda uning lingvomadaniy muhitda bekam-ko'st taraqqiy etishini ta'minlaydi. Har bir soha doirasida faol qo'llanadigan va o'sha soha uchun xos bo'lgan maxsus so'zlar mavjud. Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik sifatida terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti, terminologik lug'at yaratishning muhim manbai hisoblanadi.

Turizm lingvistikasining shakllanishi bevosita turizm terminologiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Turistik terminologiya tizimi turistik tizimni, shuningdek, ishlab chiqarishning yuqori ixtisoslashgan tarkibiy qismlarini, texnologik, marketing sohalarini (universal va mahalliy) hamda ijtimoiy-madaniy va etnomadaniy tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi². Turkiyada turizmning paydo bo'lishi bilan birgalikda uning o'ziga xos terminologik qatlami vujudga keldi va bosqichma-bosqich davom etgan quyidagi tarixiy jarayonlar turizm terminologik qatlamining kengayishiga sabab bo'ldi:

1. Anadolu hududlaridan miloddan avvalgi V ming yillikda Shoh yo'lining o'tishi Turkiya hududlarida turizmning shakllanishiga turtki bo'ldi. Bu esa o'sha davrdagi turizm terminlarini yuzaga kelishining ilk namunalari hisoblanadi.

2. Sharq va g'arbni bog'lashda Turkiya ko'prik vazifasini bajargan Buyuk ipak yo'lining miloddan avvalgi II asrda vujudga kelishi savdo-sotiq bilan birga madaniyatlar almashinuvi hamda ziyoratning rivojlanishida ahamiyatga ega bo'lib, madaniy, ziyorat va savdo turizm terminlarini yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

3. Usmonli imperiyasining Anadolu, Osiyo va Afrika hududlarida hukmronligining kengayishi natijasida musulmonlarning Makka va Madinada yanada tinch Haj amalini ado etishlari uchun imkoniyat yaratilishi diniy sayyohlik va unga bog'liq sayohat terminlarini yuzaga keltirdi.

4. XVI asrdan boshlab dunyoga o'z ta'sirini o'tkazgan kashfiyotlar Usmonli imperiyasida ham eski tijorat yo'llarini ahamiyatini yo'qotishiga sabab bo'ldi va Yevropada boshlangan renessans va reform harakatlari butun dunyoda turizm sohasini yangi pog'onaga ko'tardi. Endi faqat savdo bo'yicha emas, madaniyat, san'at, moda, tibbiyot, ta'lim va ziyorat qilish maqsadlarida ham sayohat qilish kengaydi. Bu esa sayyohlar uchun yangi mehmonxonalar va yengillik sifatida terminologik lug'atlarni yaratishga imkoniyat berdi.

5. Turkiya Respublika deb e'lon qilingandan keyin turizm davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Olib borilgan islohotlar natijasida Turkiya ham ichki ham tashqi turizm markaziga aylandi. 1940-yilda Turkiya birinchi prezidenti Mustafo Kamol otaturk turizmni qo'llab-quvvatlaydigan "Seyyabin" tashkilotini tuzdi. 1957-yildan esa turizm sektori shu soha uchun tashkil etilgan vazirlik tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Bu esa turizm Turkiya iqtisodiyotining asosiy qismiga aylanganidan va tilshunoslikda yangi tarmoq turizm lingvistikasini ham rivojlanishida yuqori bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda turizm ham tilshunoslikda ham iqtisodiyotda ham xalqaro maydonda ilgarilab borayotgan keng tarmoqli tizimga aylandi va yangi turlari, tarmoqlari kengaydi: Bu terminologiya sohasida ham yaqqol ko'zga ko'rinarli tarmoqli atamalarni dengiz sayohati, tibbiy turizm, ta'lim turizmi, ziyorat turizmi, agro turizm, qishlash

¹ Sirojiddinov Sh. So'z o'zlashtirish omillari xususida // O'zbek tili va adabiyoti, 2017. - №4. B.83

² Мошняга. Лингвистика и Межкультурная коммуникация // 2008. - №4 ЮС-148.



turizmi, yaylov turizmi kabi tarmoqlarni shakllanishiga turtki bo'ldi

Turizmning tarixiy rivojlanishi, shuningdek, globallashuvda til darajasida namoyon bo'lgan umumiy sayyoraviy globallashuv jarayonlari xalqaro turizmning asosiy terminologiya tizimi ingliz tili ekanligi ma'lum bo'ldi¹.

Demak, Turkiyada turli tarixiy va ma'naviy jarayonda vujudga kelgan omillar ta'sirida turizmning paydo bo'lishi bilan o'sha davrga xos ma'lum terminologik tizim ham yuzaga kela boshladi va bu o'z navbatida turizm lingvistikasi kabi tilshunoslikda yangi yo'nalishning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Turizm har bir davrda o'ziga xos turlicha maqsadlarni amalga oshirish yo'lida xizmat qilgan bo'lsada, bu termin tizimida ham tarmoqlarni kengayishiga va ortishiga hamda yangi qatlamni shakllanishiga xizmat qildi. Hozirgi davrda rivojlanib borayotgan Turkiyani turizmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu esa iqtisodiy jihatdan yanayam turizm sohasini yuksaltirish, tilshunoslikda esa terminologik jihatdan tizimli tartiblash, yangi turizm tarmoqlarining terminologik tizimlarini tashkil etib, ularni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish va rivojlanishida yangi bosqichga olib chiqishi uchun yetarli imkoniyatlarini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jack, G., Phipps, A. (2005) *Tourizm and Intercultural Exchange; Why Tourizm Matters*. Clevedon :Buffalo: Toronto: Channel View Publications.
2. L.Khasanova, O.Panchenko, T.Zakirov: *Историогенез лингвистического туризма России*. 2019.-№2.
3. Khasanova, O.Panchenko, T.Zakirov: *Историогенез лингвистического туризма России*. 2019.-№2. Том3.
4. Баскова Ю.С. Лингвистические олимпиады как средство повышения уровня иностранного языка у студентов факультета сервиса и туризма// *Курорты. Сервис. Туризм*. 2013. №2-4(19-21). С.165-171.
5. Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- Москва, 2009.
6. Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. Л ... канд. филол. наук.- Великий Новгород, 2011.
7. 14. Мошняга. Лингвистика и Межкультурная коммуникация// 2008.-№4 юС-148.
8. Sirojiddinov Sh. So'z o'zlashtirish omillari xususida // *O'zbek tili va adabiyoti*, 2017.-№4. B.83
9. UNWTO. <http://www.unwto.org/index.php>

1 Мошняга. Лингвистика и Межкультурная коммуникация// 2008.-№4 юС-148.



O'ZBEK ADABIY TILIGA GAZETA VA PUBLISISTIK USLUBLARNING KIRIB KELISHI

Sharipova Sarvinoz Sayid qizi,
Telefon: +998907999505
sarasaripova006@gmail.com

Annotatsiya: XIX asrda turli ta'sirlar natijasida Rossiyaning chekka o'lkalarida "umumiy turk tili" to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokratik-ma'rifatparvarlar esa o'zbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar XIX asrning I yarmidan boshlab paydo bo'lgan nashriyot va vaqtli matbuotda o'z ifodasini topdi. Maqolada shu haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: adabiy til, publitsistik uslub, panturkizm, ruscha-internatsional so'z, umumturk tili, «Turkiston viloyati gazetesi».

Turkistonning Rossiyaga qo'shilishi turli xil iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Rossiyaning chekka o'lkalarida adabiy va madaniy harakatchilik islomni reforma qilish, uni burjuaziya talablariga ko'ra modernizatsiyalashtirish yo'li bilan olib borildi. Natijada milliy burjuaziyaning ideologiyasi vujudga keldi.

Demokratik yo'nalishda bo'lgan ma'rifatparvar o'zbek ziyolilari O'rta asr despotizmiga, asrlar bo'yi davom etib kelgan qullik va jaholatga qarshi kurashdilar.

Adabiy harakatchilik panturistik, panislamistik nazariyalar asosida rivojlandi. Turli ta'sirlar natijasida Rossiyaning chekka o'lkalarida «umumiy turk tili» to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokratik-ma'rifatparvarlar esa o'zbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar XIX asrning I yarmidan boshlab paydo bo'lgan nashriyot va vaqtli matbuotda o'z ifodasini topdi. Avval aytganimizdek 1871-yildan mustaqil ravishda «Turkiston viloyati gazetesi» keyinchalik 1906-yildan «Taraqqiy» gazetasi chiqa boshladi. Shu davrdan boshlab o'zbek adabiy tilida gazeta-publitsistik stil paydo bo'ldi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishidan so'ng rus tilidan qilinadigan tarjima asarlari soni ko'paydi. Bunga asosiy sabab rus tilining madaniy hayotdagi roli va ahamiyati oshganligidir. Shuningdek, rus-tuzem maktablarini yerli xalq bolalari bitirib chiqa boshladilar. Ularning kuchi bilan ruschadan o'zbekcha va o'zbekchadan ruschaga asarlar tarjima qilish ishlari boshlandi.

Rus tilidan diplomatik xujjatlar, rasmiy yozishmalar, informatsion maqolalar, qishloq xo'jaligiga oid, ilmiy, tibbiy texnik, siyosiy-tarixiy va shu xildagi asarlar tarjima qilindi. Ular «Turkiston viloyati gazetesi»da bosilib turdi.

Shunday qilib, «Turkiston viloyati gazetesi» o'zbek madaniyati, xususan, adabiy tili tarixida ma'lum ijobiy rol o'ynadi. Furqat, Sattorxon, Is'hoqxon kabi ilg'or intelligensiya vakillari gazeta orqali adabiy va publitsistik faoliyatlarini namoyish qildilar.

Furqat dastlab gazetani «E'lonnoma» deb tushunadi, lekin keyinchalik uning siyosiy ijtimoiy ahamiyatini tushunib, unda aktiv ishtirok etdi. Sattorxon 1883-1890-yillar davomida redaksiyada muharrir yordamchi va tarjimon bo'lib ishlaydi. Ular o'zlarining publitsistik maqolalarida va xatlarida fan-madaniyatni tarqatuvchi sifatida maydonga chiqdilar.

Furqat, Sattorxon, Is'hoqxon publitsistikasining tili alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zbek adabiy tilning gazeta-publitsistik tili va stili rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular o'zbek adabiyoti klassiklarining eng yaxshi traditsiyalarini davom ettirib, o'zbek adabiy tili rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Ular o'zbek tilini arxaik elementlardan tozaladilar, uni yangi iboralar va ruscha-internatsional so'zlar bilan boyitdilar.

Ruscha-internatsional so'z va iboralarni publitsistik maqolalarida ham so'zlashuv tilidagi formasida ishlatdilar: *tiligraf, zavud, moshin, rael, fotogrif (Furqat), giniral, gubirnatur, uezdnoy, ushpul, afitser, kamisiya* (Sattorxon) Is'hoqxonning quyidagi fikrida rus tili ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashtirilgan leksik elementlarni yaqqol ko'ramiz «*Asrimiz madaniyati bor erdi, chunonchi otash aroba, hatto uchadurgon apriplon, giramo'fo'n, fatogrof, tipograf, litograf, anvon mashinalar avtomo'bil, valisafed, tilsiz tiligromlar, necha-necha ashei jadida, anvoyi adidalar-hammasi mavjud edi*» («Turkiston viloyati gazetesi»)



Ayrim soʻz va terminlar tarjimasini bilan berildi pachotniy, ismotritel, yaʼni izzatlik nozirlik, Hoʻqand shahridagi madrasada pachotniy ismotritel, yaʼni izzatlik nozirlik mansabida turdim (“Turkiston viloyati gazetasi”, 1890, 3 son).

Ayrim ruscha internatsional soʻzlar va birikmalar davr talabiga binoan arabcha, forscha soʻzlar bilan tarjima qilib berilgan Masalan, *tupchi, tura (gospodin artillerist), vaziri ilmiya (maorif ministri), ilmiya masmtsati (pedsovet majlisi), murshidi (yoʻlboshchisi), jahonnoma, jarroh (xirurg), tarroh (arxitektor), hakim (vrach), mudarris (professor)* Gazeta publitsistik stilida qoʻllangan ruscha-internatsional soʻzlar doirasida quyidagi qatlamlar mavjud edi:

1. Siyosiy-diplomatik tushunchalarni anglatuvchi soʻz va terminlar: *sudya, komissiya, konsul, дума, siyezd, monifest, zabostufka, morsileza, onorxiya* va h. k.

2. Harbiy tushunchalarni biddiruvchi soʻz va terminlar: *pulkovnik, kopiton, giniral, litinont, ofitser* va hokazo.

3. Pochta-telegraf bilan bogʻliq soʻzlar: *tshshgraf poʻshtaxona, morka, tilfoʻn*.

4. Matbuotga doir soʻzlar: *redoksiya, gazetxonona, harf bosadurgon moshina*.

5. Madaniy-maorif ishlari bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar: *gimnoziyiy, muzi, laborotoriyiy, tirmumetr, kompos*.

6. Administratsiya bilan bogʻliq soʻzlar: *inspiktur, diriktur, ministur, onjirnoy (injener), grojdonen* va h. k.

Gazeta tilida oʻzbek tilida mavjud boʻlgan yasovchi affikslar (ularning ayrimlari fors-tojik elementlaridir), yaʼni *-lits, -lik, ma, -chi, -xona*, kabi affikslar yordamida yangi soʻzlar yasaldi. Ularning eng mahsuldori *-chi* affiksi hisoblangan. Bu affiks ishtirokida goʻza ekuvchi, oktabrchi, saylovchi soʻzlari, *-lich* affiksi ishtirokida buzgʻunlik, *-ma* affiksi ishtirokida otishma, *xona* affiksi yordamida poʻshtaxona kabi soʻzlar yasalgan.

Shuningdek soʻz yasovchilardan oʻrinsiz foydalangan hollar ham seziladi, *-chi* affiksi bilan yasalgan soʻzlarda shunday hodisa yuz bergan *Xurriyatchilar va hukumatchilar orasida voqeʻ oʻlmish, gazitachi, (jurnalist)* kabi. Muhimi shundaki, gazeta-publitsistik stilida badiiy stilning taʼsiri kuchlidir, chunki badiiy stil oʻzining koʻp asrlik traditsiyasiga ega edi. Ayni zamonda gazeta publitsistik stilining shakllanishi natijasida bu stilga xos ayrim xususiyatlar badiiy adabiyotga ham singib bordi. Bunda Furqat, Isʼhoqxon, Sattorxonlarning roli katta boʻldi.

Oʻzbek vaqtli matbuoti tilining ayrim leksik-semantik xususiyatlari:

A. qadimgi tarixiy soʻzlar.

B. boshqa tillardan oʻtib qolgan leksik qatlam.

D. polisemiya.

E. Kalka masalasi.

Oʻzbek vaqtli matbuoti tili leksikasi bevosita adabiy tili leksikasining oʻziga xos bir tarmoqdir. Shu boisdan, oʻzbek tili leksikasining taraqqiyotini belgilovchi asosiy va yetakchi omillardan biridir.

Tilning leksikasi uchun asosiy obʼekt soʻz va uning maʼno valentliklaridir. Chunki soʻz tilning real maʼno ifodolovchi asosiy belgisi sanaladi. «Leksika esa koʻp sonli soʻzlar, ular oʻrtasidagi maʼnaviy aloqalar sistemasidir». Demak, leksika tilning lugʻat fondidagi barcha soʻzlarning oddiy yigʻindisi boʻlmay, balki soʻzlar oʻrtasidagi semantik munosabatlarning faktori hamdir.

XX asrning boshida Oʻzbekistonda «Osiyoning umr guzorligi» (1905), «Xurshid» (1906), «Taraqqiy» (1906), «Ulugʻ Turkiston» kabi gazetalar nashr qilingan edi.

Oktyabr toʻntarishining birinchi yillardan boshlab, avval, «Intirokinoi» keyin «Qizil bayroq», soʻngra, «Turkiston» 1924 yilning 5-dekabrda boshlab «Qizil Oʻzbekiston» nomi bilan markaziy gazeta chiqarila boshlangan edi. Joylarda esa hududiy gazetalar nashr etilgan. Demak, Oʻzbekistonda vaqtli matbuotning yuzaga kelishi bir tomondan, xalqning madaniy, siyosiy, xoʻjalik va ijtimoiy hayotida katta voqea sanalsa, ikkinchi tomondan oʻzbek adabiy tili leksikasining boyishiga katta yordam berdi. XIX asrning birinchi yarmi oʻzbek vaqtli matbuoti tilining leksik-semantik xususiyatlarini tadbiq qilishda quyidagi sohalarni tanladik:

1. Qadimgi tarixiy soʻzlar. Istalangan tillar leksikasida shu tilga xos qadimgi tarixiy soʻzlar katta oʻrin tutadi. Uzoq oʻtmishda paydo boʻlgan va turli tuman leksik maʼnolarni ifoda etgan tarixiy soʻzlar qatlamida oʻziga xos oʻrin egallagan. Gazeta leksikasida qoʻllanilgan qadimgi soʻzlarni tekshirish va oʻrganish hozirgi kun uchun katta ahamiyatga ega. Chunki «leksika tarixini oʻrganish umuman tillar tarixini oʻrganish uchun ham muhimdir».

XX asrning birinchi yarmiga aloqadar oʻzbek vaqtli matbuoti tilida ishlatilgan tarixiy leksik



qatlamni diaxronik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin. Tamg'a, so'qir, balx, baqir, bitik, so'g'on kabi so'zlar eng qadimgi davrga xos leksik qatlamni tashkil etadi. Kent, botmon, nag'ma, ulus, mezon kabi so'zlar esa XIV-XV asr o'zbek tili leksik qatlamini eslatadi. Yuqoridagi so'zlarni bunday guruhlashda biz tegishli filologik lug'atlarga, boshqa asarlarda berilgan fikrlarga suyanish mumkin.

Xalqlar va millatlar o'rtasidagi doimiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar so'zsiz ularning tillarga, tilning lug'at boyligiga doimo ta'sir etib turadi, bir tildan ikkinchisiga ko'plab so'zlarning o'tib turishiga sabab bo'ladi.

O'zbek vaqtli matbuoti tilida boshqa tillardan kirgan so'zlarning qo'llanilganligi gazeta materiallaridan olingan faktlar asosida quyidagicha ko'rsatish mumkin: Tatarcha leksik qatlam, Ozarboyjoncha-turkcha so'zlar, Ruscha leksik qatlam. Nashr qilingan bir qator o'zbekcha gazetalar tilida ishlatilgan tatarcha leksik qatlamning paydo bo'lishiga 3 sabab bor.

Birinchi, XX asr boshida, 1905 yildan boshlab, turkiy xalqlar o'rtasida «Umumiyturkiy adabiy tillar yaratish» g'oyasi keng tarqalgan edi. Bu g'oyaga ko'ra O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Qrim, Ozarboyjon, Ural, Volga bo'yi va boshqa joylarda yashovchi turkiy xalqlar uchun yagona bir tillar yaratish maktablarning yuqori sinflarda bu tilni o'z ona tili o'rnida majburiy o'qitish talab qilindi.

Ikkinchi, 1917 yilning 25 apreldan boshlab Toshkentda «Ulug' Turkiston» gazetasi chiqarila boshladi. Bu gazetaning birinchi sonida bosilgan «Maslik va maqsad» sarlavhali maqolada quyidagi fikr bayon etilgan:

«Ulug' Turkiston» ismida turk-tatar tilida bir gazeta chiqarug'a va bu gazetaga bosh moharrir etib Nunburug'da chiqatug'on mu'tabar «Vaqt» gazetasining xay'at thirriya og'alaridan Kabir afandi Bakirni chaqirug'a qaror qilingan edi. Kabir afandi ham asos e'tibori ila taklifimizni qabul etdi».

Ko'rindiki, umumturkiy adabiy tillar yaratishning ta'siri bilan «Ulug' Turkiston» gazetasi turk-tatar tilida nashr etilishi vaqtli matbuot tilida tatarcha leksik qatlamning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Uchinchi, XX asr boshida, mavjud bo'lgan o'sha sharoitda, to'la savodli, jurnalistika ishi bo'yicha tajribali o'zbek ziyolilari hali yetishmas edi. Bunday sharoitda gazeta nashriyotlarida bor bo'lgan o'zbeklar bilan bir qatorda tatar ziyolilaridan ham foydalanishga ehtiyoj sezilar edi.

Ozarbayjoncha-turkcha so'zlar. Faktlar shundan dalolat beradiki, XX asr boshidagi o'zbek vaqtli matbuoti tilida ishlatilgan ozarbayjoncha-turkcha leksik qatlamning namoyon bo'lishi ham ma'lum ob'ektiv sabablar bilan bog'liqdir. Bunga sabab qilib, birinchi navbatda, yuqoridagidek, umumiy turkiy tillar adabiy tillar yaratish g'oyasining ta'sirini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari Ozarbayjoncha ham Turkiyada o'sha yillarda nashr qilingan gazeta va jurnallarning O'rta Osiyoga jumladan, O'zbekistonga tarqalishini ham ozarbayjoncha-turkcha so'zlarning o'zbek vaqtli matbuoti tiliga kirib kelishi uchun sabab bo'ldi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т. Ўқитувчи. 1994.
2. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. -Т., 1990.
3. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т., 1973.
4. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш., Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 2008.
5. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка.-М.-Л., 1962.
6. www.literature.uz
7. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>



Саидов Ёқуб Сиддиқович,
Бухоро давлат университети
Ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори,
филология фанлари доктори
Шодиқулова Назокат Шакировна,
Сурхондарё вилояти Термиз шаҳар
5-мактаб ўқитувчиси. Тел: +998335390094
shodiqulovanazokat3@gmail.com

Аннотация. Мақолада жаҳид адабиётининг йирик вакилларида бири Исоқхон Ибрат поэтик мероси бўйича айрим фикрлар ифодаланган, унинг бадиий асарлари тили лексик-семантик аспектда қисман таҳлил этилган, бадиий тил борасидаги маҳорати очиб берилган, ўзбек адабий тили тараққиётидаги ўрни асарларидаги фактик материалларга кўра очиб берилган.

Калит сўзлар: тил, сўз, лексика, семантика, синоним, омоним, антоним, этимология, туб антоним, ясама антоним.

Мамлакатимиз мустақиллигининг дастлабки кунларидан бошлаб жаҳон маданияти ва маънавияти тараққиётига муносиб ҳисса қўшган. Туркистон жаҳид зиёлиларининг ижтимоий-сиёсий фаолияти ва илмий-бадиий меросини кенг кўламда ўрганиш, асарларининг янги талқинини яратишга ҳаракат қилинди. Ўтган давр мобайнида бу соҳада салмоқли ишлар амалга оширилди. Аёнки, мамлакатимиз дунё тамаддуни ва илм-фани ривожига улкан ҳисса қўшган улуғ алломалар, азиз-авлиёлар юрти сифатида шуҳрат қозонган. Аждодларимиз бебаҳо меросини илмий асосда чуқур ўрганиш, қадамжоларини обод масканга айлантириш доимий эътиборда бўлиб келмоқда. Жумладан, кейинги даврларда Исоқхон Ибрат ҳаёти ва ижодини ҳар томонлама ўрганиш ишига жиддий киришилмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2016 йил 2 ноябрь куни Наманган вилоятида бўлган вақтида Исоқхон Ибрат ҳақида алоҳида тўхталиб, унга атаб замонавий боғ яратиш, ёдгорлик мажмуаси ва “Ибрат мактаби”ни ташкил қилиш ташаббусини баён этди.

XIX асрда Тўрақўрғон заминиде туғилиб ўсган Ибрат домла араб, форс, рус, ҳинд, урду, инглиз, француз тилларини яхши билган, – деди Президентимиз ўз сўзида ва фикрини давом этириб, қуйидагиларни қўшимча қилди: – У дунёнинг кўплаб мамлакатларида бўлиб, Шарқ ва Европа илм-фани, маданияти ва санъати билан яқиндан танишган, юртимизга илғор маданият ва техника янгиликларини олиб киришга интиланган. Улуғ аждодимиз Ибрат таҳаллусини ўзига бежиз танламаган, унинг Ватан ва юрт тараққиёти йўлидаги фидокорона ҳаёти нафақат ўз даврида, балки бугунги кунда ҳам барчамиз учун ҳақиқий ибрат намунаси бўлиб қолмоқда.

Исоқхон Ибрат комусий билимларга эга алломадир. У ўз даври адабиёти, илм-фани, маданияти, маорифи ва адабий тилини ривожлантириш учун беҳад фидойилик кўрсатди. Унинг “Луғати ситта ал-сина” номли олти тилли (арабча, форсча, ҳиндча, туркча, ўзбекча ва русча) луғати, “Жомеъ ул-хутут” (“Ўзувлар мажмуаси”) номли тилшуносликка оид илмий рисоласи, “Тарихи Фарғона”, “Тарихи маданият”, “Меъзон ул-замон” номли тарихшунослик илмига доир асарлари, маърифатпарварлик ва эрк ғоялари чуқур сингдирилган шеърлари халқимиз маънавий маданиятининг бебаҳо дурдоналари ҳисобланади. Исоқхон Ибрат – миллий уйғониш даврининг фаол ижодкорларидан бири, серқирра истеъдод соҳиби [5, 167].

Ибрат поэтик меросининг тили ранг-баранг, образли бадиий тасвир воситаларига бойдир. Шоир шеърлари тилининг муҳим хусусиятларидан бири бадиий ифоданинг соддалиги, ихчамлиги ва раволигидир. У ҳар бир сўзнинг моҳият-мазмуни, маъно қирралари, таъсир кучи, истеъмол доирасини алоҳида эътиборга олиб, уни ўз ўрнида қўллашга ҳаракат қилади. Ўзбек тилининг сўз бойлигидан унумли фойдаланиб, ундаги синоним, омоним, антоним сўзларни, мақол ва маталларни шеърларида кўп қўллайди. Айниқса, унинг синонимлардан фойдаланиш маҳорати эътиборга лойиқдир. Шоирнинг



Қуруғайди кўз ёшим ул парилар илкидин,
Сели ашкимни кўргач, чекти барча домонлар. [1, 47]

байтида қўлланган кўз ёши ва ашк сўзлари, табиийки, маънодошликни юзага келтирган. Муболаға ва тазод бадий санъатларини воқелантириш, такрордан қочиш, ғазал бадийлиги ва мазмундорлигини ошириш, унга китобхон диққатини жалб этиш мақсадида шоир айнан бир тушунча-ҳодисани ифодалаш учун иккита луғавий бирликдан фойдаланган. Тарихий-этимологик қатлам нуқтаи назаридан “кўз ёши” ўзбекча, “ашк” арабчадир. Ибрат бадий асарлари тилида истифода этилган маънодош сўзларнинг айримлари ҳозирги адабий тилда архаиклашган:

Ҳамани кўймади ўз ҳолиға, ташвишлар солди,
Мушавваш айлаган бу аҳли дунлардан қалайсизлар? [1, 49]

Мазкур байтдаги арабча мушавваш сўзи архаик ҳолга келиб қолган бўлиб, унинг асл луғавий маъноси «ташвишли, бесаранжом, кўнгли паришон» [2,433]дир. Байтдаги ифода семасига кўра у биринчи мисрадаги ўзбекча ташвиш сўзига синоним сифатида қўлланилган. Бундай хусусият касб этган, яъни архаиклашган синоним сўзлар жумласига қуйидагиларни айтиб ўтиш мумкин:

Қандоғ фалак кажвар ўлди акнун,
Кўп турфа жафони солди гардун. [1,66]

Ушбу байтда қўлланилган фалак ва гардун сўзлари ўзаро синоним бўлиб, гардун сўзи ҳозирги ўзбек адабий тилида эскирган.

Аввалги асрларда ваъз ила амру маъруф
Ҳар ерда айтиларди, эмди жаридалар бор. [1,63]

Мазкур байтда қўлланган ва эскирган ваъз ва амру маъруфлар синоним бўлиб келган. Ваъз сўзи арабча бўлиб, у байтда “диний ақидаларни халққа, қавмга тушунтиришга, тарғиб қилишга қаратилган нутқ” [3,1,175] маъносида келган. Амру маъруф бирикмасининг маъноси “диний ўғит, панд-насихат” [3,1,45]дир. Англашиладики, улар кўрсатиб ўтилган маъноларига кўра синонимик қаторни ташкил этади.

Таъкидлаш жоизки, араб ва форс тилларини мукамал билган ҳамда мазкур тилларда қисман ижод этган Ибратнинг ўзбек тилида ёзган бадий асарларида ҳозирги ўзбек адабий тили учун архаик ҳисобланган, ўз даври адабий тилида муайян даражада истеъмолда бўлган юқоридаги каби сўзлар (улар, асосан, арабча ва форсча-тожикча сўзлардир) кўп қўлланилган. Шоир улардан маънодошлик ҳосил қилишда кенг фойдаланган.

Синонимлар шоир томонидан ифодаланган ғоя ва фикрларнинг таъсирчанлигини оширишда асосий восита бўлган, бадий асар тилининг равонлигини таъмин этишда муҳим омил бўлиб хизмат қилган. Синонимия тилнинг қанчалик бой эканлиги ва тараққиёт даражасидан бохабар этувчи ҳодисалардан биридир. Синонимия сабабли нозик маъно кирралари англатилади, ранг-баранг услубий баҳолар ифодаланади.

Шоир бадий асарлари тилида зид маъноли сўзлар ижодкорнинг ғоя-фикрларини англатишда муҳим восита бўлган. Улар лирик қаҳрамоннинг ўй-фикрларини, ички кечинма ва ҳолатини, воқеа-ҳодисаларнинг ички зиддиятларини таъсирчан ва ёрқин ифодалашга хизмат қилган. Шоир зид маъноли сўзларнинг моҳият-мазмун ва вазифасини, эстетик таъсир кучини теран англаган. Улар воситасида тазод санъатининг гўзал ва бетакрор намуналарини яратган. Чунончи, унинг

Сен шоҳи олам, мен гадо,
Кўргани келдим соғиниб. [1, 47]

байтидаги шоҳ ва гадо сўзлари ўзаро зид маънода қўлланилиб, ўзига хос тазод санъати яратилганлигини кузатиш мумкин. Шоир шеърлари тилида туб (аслий) антонимлар ҳам, ясама антонимлар ҳам кўп миқдорда учрайди. Туб (аслий) антонимга мисол:

Васлингга етурга Ибрат асру
Ҳажр илкиға мубтало бўлудур. [1, 58]

Шоир шеърларида бундан ташқари яна қари-ёш, бой-камбағал, тўғри-эгри, яхши-ёмон, тўй-аза, маълум-мавҳум, машаққат-роҳат, бормоқ-келмоқ, иссиқ-совуқ, вафо-жафо каби туб антонимлар қўлланилган. Ясама антоним сўзлар жумласига иболи-безбет, бемаза-лазиз, раҳмдил-бераҳм, беқарз-қарздор, соғ-носоғ, касб-бекасб, гуноҳкор-беғуноҳ кабиларни айтиб ўтиш мумкин.

Шоир шеърларидаги антонимик жуфтликларни генетик манбаига кўра қуйидаги турларга



ажратиш мумкин:

1. Арабий сўзлардан иборат антонимлар. Бундай зид маъноли сўзлар жумласига *аввал-охир маданият-бадавият, машаққат-роҳат, маълум-мавҳум, захмат-роҳат* кабиларни айтиб ўтиш мумкин. Мисол:

Сучук тил била, табассум қилиб сўраб ҳолим,
Аввалда, ваъда бериб, охири жафо қиласиз.[1,59]

2. Форсий сўзлардан иборат антонимлар. *Паст-баланд, дашт-гулистон, шоҳ-гадо, хушрўй-хунук, пок-нопок, камоб-сероб* кабилар шундай антонимлар жумласидандир. Мисол:

Маданийлар ўзиға шоҳ ўлғай,
Бадавийлар бир гадо ўлғай. [1, 64]

Шоир шеърлари тилида айрим контекстуал антонимлар ҳам учрайди. Чунончи, унинг Ибрат олсунлар ҳама ишчи бунинг мазмунидин,
Ишласанг, қандингни ол, гар дангаса бўлсанг захар. [1, 57]

байтидаги *қанд* ва *захар* сўзлари шундай хусусиятли сўзлар жумласига киради. Форсий *қанд* сўзининг луғавий маъноси “соф шакар моддасидан, шакардан тайёрланадиган маҳсулот; ширинлик” [4,II,548]дир. Мазкур сўзнинг матний антоними сифатида қўлланган форсий *захар* сўзининг асл луғавий маъноси эса “тирик организмни оғулаб емирадиган ёки ўлдирадиган модда, оғу” [4,I,302] бўлиб, унинг кўплаб кўчма маънолари мавжуд. Шундай кўчма маъноларидан бири “оғу сингари аччиқ, кишининг ҳаётини оғулайдиган, кишига татимайдиган нарса”дир. Юқоридагилардан англашиладики, *қанд* сўзида “ширин”, *захар* сўзида эса “аччиқ” семаси мавжуд. Аёнки, *ширин* ва *аччиқ* сўзлари ўзаро зид маъноли сўзлар ҳисобланади (қар.: Раҳматуллаев Ш. ва бошқ. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 33). Ибрат *қанд* ва *захар* сўзларидаги ана шу хусусиятларни эътиборга олиб, уларни ўзаро зид маъноларда қўллаган. Шоир бу билан айтмоқчи бўлган фикр қуйидагича: меҳнат қилсанг турмушинг ширин, аксинча, ишламасанг, дангаса бўлсанг турмушинг аччиқ бўлади.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Исҳоқхон Ибрат ўзининг ижтимоий-сиёсий, ахлоқий ва эстетик қарашларини ифодалашда маънодош ва зид маъноли сўзлардан жуда кенг фойдаланган. У учун антонимлар зидиятларга тўла даврнинг умумий руҳини ифодалашда асосий тил воситаларидан бири бўлган, десак хато қилмаган бўламиз. Шоир маъно жиҳатидан ўзаро зид бўлган сўзлар воситасида тазод санъатининг гўзал, ранг-баранг намуналарини яратган. Унинг бу борадаги адабий мероси ҳозирги даврда ҳам ўзининг бадиий-эстетик қийматини асло йўқотган эмас.

Адабиётлар

1. Ибрат, Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчилар Б.Қосимов, С.Аҳмедов, У.Долимов). –Т.: Маънавият. 1999. -228 б.
2. Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. -791-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II. –М.: Русский язык, 1981; Т. I. 1981. -631 б.; Т. II. 1981. -715 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. -Т. I. 2006. -680 б.; Т. II. 2006. -672 б.; Т. III. 2007. -688 б.; Т. IV. 2008. -608 б.; Т. V. 2008. -592 б.
5. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедова С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти / Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Маънавият, 2004.



ABADIYLIGING BARDAVOM BO'LSIN, QADRI BALAND ONA TILIM!

Anyozova Raxima Botirovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

7-son maktabining ona tili

va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon:+998(94)2347989

anyozovar@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, hamda o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor haqida qisqaha ma'lumatlar beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, Davlat tili, 1989 yil 21-oktabrda, islom dini, muqaddas, e'zozlash, unitilmaydi

Malumki, ma'lumotlarga qaraganda, er yuzida etti mingga yaqin til mavjud. Ammo, ularning aksariyati yo'qolib ketish arafasida. Dunyoda millat, xalq shakllanibdi-ki, o'z tiliga, diniga, urf-odatlariga ega. Bir elatga xos bo'lgan til o'ldimi, demak endi bu el o'zligidan ayrilgan, qanotlari qayrilgan qush misolidir. SHuning uchun ham tarixdan ayonki, bir davlatni tobe' qilish uchun avvalo, uning tili, dini va madaniyatiga ta'sir ettirilgan. Masalan, VIII asrda arablarning yurtimizga bosqini davrida arab yozuvi, arab tili joriy qilindi. XIII asrda mo'g'ullar istilosi oqibatida ko'plab asriy qo'lyozmalar, qimmatli kitoblar, durdona asarlar yo'q qilindi. Xuddi shunday yaqin o'tmishga boqadigan bo'lsak, yurtimiz deyarli bir asr davomida SSSR davlati tasarrufida bo'ldi. SHu vaqt ichida xalqimiz misli quldek yashadi. Yurtdoshlarimizning tarixi poymol qilindi, e'tiqodi oyoqosti bo'ldi. So'z erkinligi, fikrlar xilma-xilligi cheklandi. O'z tilidan, dinidan, urf-odatlaridan mosuvo qilindi. Haq-huquqlari, yurt kelajagi, Vatan ravnaqi uchun kurashgan ko'plab ajdodlarimizga nisbatan ayovsiz jazolar, qiynoqlar berildi. Ham ruhan, ham jismonan zarba berildi. CHO'lpon, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi buyuk siymolar umri xazon qilindi. Biroq, sa'y-harakatlar izsiz ketmadi. Yillar o'tib, hurlik sharofati ila bu metin iroda sohiblari nomlari oqlandi. O'sha davrlarda adabiyotimizning nodir asarlari yaratildi. Bugungi kunda bu asarlar nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'rin egallab kelmoqda. Ha, tilimiz ana shunday murakkab va ziddiyatli davrlarda sinaldi. Va nihoyat, 1989 yil 21-oktabrda tilimiz yangidan tug'ildi. Ya'ni, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Mustaqillik bizga qo'ldan ketgan erkimiz, cheklangan haq-huquqlarimiz bilan bir qatorda, davlat ramzlarimiz, shu jumladan, ona tilimizni ham tuhfa qildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning: «Ona tili avvalo, ona allasi bilan uning betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir» deya aytilgan da'vatkor fikrlari biz yoshlarga o'zgacha shijoat beradi. Ona tilimizda yangrayotgan har bir so'z, insonga o'zgacha tuyg'u, o'zgacha ishonch beradi, g'ayratimizga-g'ayrat, kuchimizga-kuch qo'shadi. Tilimizdagi iliq, betakror, serjilo so'zlar insonning qalb torlarini mohirona chertadi, betobni sog'aytiradi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini nishonalash arafasida 2019 yil 21 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, shuningdek, hukumat qarori bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, muassasa hamda boshqa tashkilotlarda davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, o'zbek tilini rivojlantirishni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi (mas'ul xodim) lavozimi joriy etildi.

"Davlat tili haqida"gi Qonunning tarixiy o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning uzviy davomi sifatida 2020 yil 10 aprel kuni Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni imzolandi. Unga muvofiq 21 oktyabr sanasi yurtimizda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi. Bu bilan davlat ramzlaridan biri sanalgan ma'naviy qadriyatimiz – ona tilimiz qonun himoyasida ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Ushbu bayramning mamlakatimizda keng nishonlanishi ona tilimizga e'tiborni yuksaltirish,



uning mukammaligi va boyligini ko'rsatib bera olish, nafaqat o'zbek xalqi, balki boshqa millat vakillarini ham bebaho boyligimiz hisoblangan tilimiz va madaniyatimizni o'rganishga ilhomlantirishda xizmat qiladi.

Biz esa o'z navbatida tilimizning pokligi va o'ziga xosligini saqlash, uni boyitish va takomillashtirishga o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Zero, noyob xazinamiz - tilimizni asrash hammamizning burchimizdir.

Shunday ekan, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga doir hujjatlar ijrosini ta'minlash uchun Transport vazirligi va uning hududiy bo'linmalari, idoraviy mansub tashkilotlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi va hujjatlarning davlat tilida qat'iy yuritilishini ta'minlash ishlari bo'yicha mas'ul xodimlar tayinlandi, tegishli vazifalar belgilangan holda buyruqlar, chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Darhaqiqat, til buyuk ne'matdir, har bir millat o'z tilini e'zozlasa, qadrlasa, taraqqiyoti uchun jon kuydirsa, u til go'zal, betakror va buyuk bo'lib qolaveradi! Shunday ekan, har bir xalq aziz va muqaddas bo'lgan o'z tilini asrashi, uni boyitishi va rivojlantirishi, jozibasini to'la namoyon etishi uchun harakat qilishi kerak, chunki unda xalq tarixi, milliy qadriyatlari, madaniyati ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.Ma'naviyat.2008.27-6.
2. <https://www.mintrans.uz>.



INTERACTIONS BETWEEN LANGUAGE AND RELIGION

Otabek Mavlonov

Turin Polytechnic University in Tashkent

phone: +998909489494

ottabeck@mail.ru

Annotation. In this article the author identifies the following linguistic turns in religious studies – interaction between language and religion, the ways and options how they connected to each other.

Key words: language, religion, theology, linguistic turns, interaction, relationship, cognitive, hermeneutics, myth

It is impossible to understand the methodological role of linguistics in the study of religion without understanding how religion is viewed in linguistic methodology, how such a methodology turned out to be effective in religious studies, and how, in principle, such a transition from one science to another was possible. Speaking that it is necessary to reveal the understanding of religion by linguistics, it should be recognized that it is then necessary to reveal how language is understood in such transitions. In other words, if the research field of linguistics expands in such a way that it includes the subjects of the study of religious studies, how is it possible that it still remains within the limits of its object, that is, language?

Answering this question, we can outline several options for understanding the relationship between religion and language. The first option is the idea of the homogeneity of language and religion. In this case, they are considered as related cultural phenomena that develop according to similar laws, and the development of a new methodology for the study of one phenomenon makes it possible to transfer this methodology to another phenomenon. Another option involves considering the genetic relationship between language and religion, when one is a product of the other, that is, religion is recognized as a product of linguistic processes or language is recognized as a product of religious processes (which, in principle, is possible in a theological context).

The third option is more cultural, and it is associated with the understanding of religion and religious phenomena as linguistic phenomena in a broad sense, that is, as communicative and sign-symbolic systems. Moreover, it is not the acts of communication in the religion of the vertical and horizontal levels (Man - Supernatural, Man - Society), but religion itself appears as a cognitive system that contains knowledge about this worldly and other worlds and transmits them to subsequent generations.

The fourth option is associated with linguistic changes in philosophy and the birth of an analytical philosophy of religion, for which the analysis of the language of religion is a semantic paradigm. But it is important to understand that the language of religion in the analytical tradition of philosophizing appears as a set of religious statements, and religion itself is seen as a system of such statements. Here the language of religion appears before us as a logical system of religious statements, which can be both cognitive and non-cognitive characters.

In turn, the next option is associated with the continental tradition of M. Heidegger's hermeneutic phenomenology, for whom both language and religion are a form of human existence.

The last, sixth option is not of a general methodological nature, but specifically a scientific one, and it is associated with direct linguistic phenomena in religion itself, which are particular problems of philology or linguistics. Such problems are: analysis and criticism of sacred texts; patterns of functioning of sacred, liturgical and religious languages; religious sociolects and ethnolects; connection between ethnicity, language and religion; the nature and type of religious symbols, translation problem, etc.

The above-mentioned options do not deplete the entire spectrum of interaction between linguistics and religious studies, since the linguistic turn of the middle of the 20th century suggests seeing as language in everything.

Bibliography:

1. Walterstorff N. Divine Discourse: Philosophical Reflections on the Claim that God Speaks. Oxford, 1997



NUTQ MADANIYATI – DAVR TALABI

Qahramonov Aliboy Yolgoshevich

Filologiya fanlari nomzodi

O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fikrni erkin bayon qila olish, ona tili va nutq madaniyati masalalari, ularga qo'yilgan talab va me'yorlar, shuningdek nutq madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, til, millat, fikr, jamiyat, nutq, so'z, ona tili, shaxs, o'qituvchi.

Ma'lumki, fikrni bayon etish va tafakkur qilish nutq orqali amalga oshadi. O'quvchida tafakkur qilish qanchalik rivojlantirilsa, uning fikr bayon qilish mahorati shunchalik yuqori bo'ladi. Davrimiz hozirgi yosh avloddan fikrlash va fikr mahsulotini to'g'ri ifodalashni talab qilar ekan, o'quvchi va talabalarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangidan-yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak.

Nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim belgisi bo'lib, unda millat ma'naviyati o'z aksini topadi. Mustaqil yurtimizda ma'naviy islohotlar jadal sur'atlar bilan olib borilayotgan bir paytda nutq madaniyati masalalariga ham e'tibor ortmoqda.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. "To'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik sifatlarining barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy nutq hisoblanadi". Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izoxli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayoti erkinligi jamiyatning har bir a'zosidan faol nutq va ishonch bilan gapirish qobiliyatini talab qiladi, chunki nutq - bu nafaqat o'qituvchi, siyosatchi, huquqshunos, balki har qanday xodim, mamlakatning har bir fuqarosi faoliyatining aloqa vositasi hisoblanadi. Nutqiy muammalarni e'tiborsiz qoldirish natijasida dialog, munozaralar olib bora olmaslik, monolog tuza olmaslik, tantanali nutq so'zlay olmaslik, suhbatdoshiga ta'sir qila olmaslik holatlari yuzaga keladi.

Jamiyat, millatning ma'naviy rivojlanish jarayonlari, ularning til bilish darajalari bilan ajralmas bo'lib, u o'z avlodlarining davrga jonli bog'liqligini aks ettiradi. Til yordamida inson o'zini, o'z xalqi rolini nafaqat o'tmishda, balki hozirgi paytda ham anglaydi.

Nutq madaniyati haqida ma'lumotlar maktab darsliklarida o'rin olishi yosh avlodning tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyatiga rioya qilish, so'zni o'z o'rnida qo'llash insonning hurmatini yanada oshiradi. Ayniqsa, o'qituvchi o'z nutqida chiroyli so'zlardan keng foydalanishi kerak. O'quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozini kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur.

Nutq madaniyatini egallash uchun, asosan umumxalq tili va adabiy tilni bilish zarur. "Adabiy til me'yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib keladi". Bugungi kunda nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, nutq madaniyatini har qachongidan ham rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga bugungi kunda faqat o'zbek tilshunosligidagina emas, balki barcha davlatlar tilshunosliklarida ilmiy ob'ekt sifatida juda katta ahamiyat berilmoqda. Chunki nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilar yuksak madaniyatli bo'lishi, jumladan nutq madaniyatini yetarli darajada egallagan bo'lishlari lozim. Mana shu sabablarga ko'ra nutq madaniyatini yanada rivojlantirish, uni kamolot bosqichiga ko'tarishda doim g'amxo'rlik qilish lozim bo'ladi. Mana shu o'rinda tilning hech bir imkoniyati nutqsiz, nutqiy jarayonsiz amalga oshmasligi, yuzaga kelmasligiga amin bo'lamiz. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi.

Ma'lum bo'ladiki, til nutqning o'ta muhim unsuri sifatida aloqa, xabar, ta'sir etish, shu bilan birga, imkoniyatlari nihoyatda kengayib borishi natijasi o'laroq kishilik jamiyati to'plagan tajriba



va bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazishdek ulug'vor ijtimoiy vazifani bajaradi. "Fikrimizni o'z ona tilimizda mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifodalash uchun bizda nutqiy madaniyat, notiqlik yetarli darajada shakllanmog'i kerak". Umuman, yosh avlodda notiqlik qobiliyatini shakllantirish va izchil kamol toptirish, bu yo'lda samarali usullarni izlab topish va ta'limga yo'naltirish olimlarimiz va o'qituvchilarimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Nutq madaniyati sohasining maqsad va pirovard orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishdir. Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi lozim. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'lmasligi, bo'la olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart. Chunki nutq madaniyatini mukammal bilish davr talabidir.

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlarini og'zaki nutqda va yozma nutqda mohirona qo'llash san'atidir. Uni egallash uchun zarur bo'lgan quyidagi vositalarni bilish nihoyatda muhimdir. Bular quyidagilardir:

- ona tilining darslik va qo'llanmalari, grammatikalari, turli tirdagi lug'atlar;
- o'zbek adabiyoti darslari;
- o'rta umumta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, akademik litseylar va oliy ta'limda o'qitiladigan tabiiy fanlarga oid darsliklar, ular tili;
- o'zbek badiiy adabiyot tili (mustaqil o'qish, yod olish nazarda tutiladi);
- o'zbek matbuoti (gazeta va jurnallar) tili;
- radio va televideniyeining o'zbek tilidagi eshittirishlari;
- to'garaklar, badiiy uyushmalar va boshqalarda olib boriladigan badiiy o'qish darslari va ta'limi;

- notiqlik san'ati, nutq madaniyati yuzasidan o'qitiladigan fakultativ kurslar ta'limi va boshqalar.

Qiroat, ya'ni badiiy asarlardan yoddan o'qish nutq madaniyatini o'stirish uchun nihoyatda muhim omil ekanligi o'tmishdan ma'lum. Bulardan tashqari, kishilar og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallash uchun masalaning quyidagi jihatlariga ham e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir:

- o'zining kundalik nutqiy faoliyatiga;
- adabiy tilga, uning meyorlariga ongli, ilmiy munosabatda bo'lish;
- o'zining og'zaki va yozma nutqi ustidan doimo nazorat o'rnatish;
- tilning va nutqning nozik nuqtalarini seza olishi;
- tilga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish va boshqalar.

Olimlar nutq madaniyatini egallashning ikki bosqichi mavjudligini, ya'ni to'g'ri nutq bosqichi va nutq madaniyati bosqichi mavjudligini ta'kidlashadi. Birinchi bosqichda adabiy til va uning me'yorlari shaxslar tomonidan egallanadi. Ikkinchi bosqich esa uning mantiqiy davomi bo'lib, unda nutq madaniyatining barcha talablarga javob bera olishi nazarda tutiladi. Namunali nutq quyidagi talabalarga ham javob berishi lozim:

- nutqning mazmuniy aniqligi va to'g'riligi;
- nutqning mantiqiyliigi va izchilligi;
- nutqning axloq va odob doirasida so'zlanishi;
- nutqning chiroyliligi, uning psixologik va pedagogik mezonlarga javob bera olishligi;
- nutqning umummadaniy talablariga bo'ysunganligi;
- nutqning vaziyatga va sharoitga mosligi va h.k.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini nazarda tutish dolzarblik kasb etganligi bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E., Jiyanova N. Nutq madaniyati asoslari.
2. Ma'rufov A. Nutq madaniyatining ba'zi masalalari.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati.
4. Nosirov R. O'zbek nutqi madaniyati.
5. Bekmirzayeva N. Notiqlik san'ati asoslari.
6. Nazarov K. Nutq madaniyatiga oid masalalar.



“МАЪНАВИЯТ” ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ЛУҒАТИ ВА УНДА КОНЦЕПТУАЛ ЛЕКСИКОГРАФИЯ

Г.Н.Тожиева, Қарши ДУ
ф.ф.ф.д.(PhD), доцент

Ўқувчиларни она тилининг имкониятлари билан қуроллантиришнинг лингвомаданият-шунослик концепцияси уларнинг лингвомаданий компетенциясини шакллантиришида ҳал қилувчи омил бўлиб, бу концепция асосида ўқувчи тилни маданий мағиз билан бирга эгаллаб боради. Эгалланган бу имконият асосида у ўзининг муайян миллатнинг маданий фонига мансублигини ҳамда умуминсоний маданий меросга ҳақлилигини англаб етиш кўникмасига эга бўлади ва шаклланган бу кўникма таълим жараёнида унинг малакаси даражасига тинимсиз айланиб бораверади.

Ўқувчи онгида миллий концептосферанинг шаклланишида лингвомаданий имкониятни онгли равишда ўстиришга мўлжалланган дарслик ва луғатлар катта аҳамиятга эга. Бунинг ёрқин далили сифатида янги асрда педагогика фанлари доктори, профессор Л.Г.Саяхова раҳбарлигидаги бошқирд олимлари рус тилини ўқитиш лингвомаданий концепциясининг ўқув-методик таъминотини яратишга қўшган катта ҳиссасини кўриш мумкин. Улар ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини инобатга олиб, лингвомаданиятшунослик аспектидаги қатор дарслик ва ўқув луғатлари мажмуасини яратишди ва таълим жараёнига татбиқ этишди.

Лингвомаданиятшунослик луғатларининг объекти тил, тафаккур ва маданият ҳодисалари муштараклигини ўзида акс эттирган миллий концептлардир. Миллий-ментал хосланган концептлар таълимнинг лингвомаданиятшунослик концепцияси бирлиги сифатида лексикографик тавсиф объекти сифатида намоён бўлади. Ҳар бир концепт ОЛТ ва маданият концептосферасининг ташкил этувчиси бўлиб, ўзида лисоний маъно ва маданий мағизни бирлаштиради. Ҳар бир концепт ўз бағрида денотатив ва коннотатив маъно ҳамда маданий фонни мужассамлаштиради. Мисол сифатида олинаётган таклиф этилаётган “Оламнинг ўзбек лисоний тасвирида миллий ғоя концептлари” луғати ана шундай типдаги луғатлар сирасига киради. Луғатнинг объекти “миллий ғоя” концептосферасидир. Бу луғат келажакда тегишли луғат-корпусларни яратиш ва ундан она тили таълими жараёнида фойдаланиш сари қўйилган илк қадам дейиш мумкин.

“Оламнинг ўзбек лисоний тасвирида миллий ғоя концептлари” луғатида миллий-истиклол ғояси концептосферасидаги ўзбек миллий менталитетини умумлашган ҳолда акс эттирадиган ядро, ядрони хусусийлашган кўринишларда намоён қиладиган марказ ва қуршов концептлари лингвомаданий семантикасининг лексикографик тавсифи амалга оширилади. Луғатда сўз соф тил майдонидан, лингвистик ҳудуддан ташқарига чиқиб, лисоний шахснинг миллий менталитети шаклланадиган маънавий маданият концепти ифодаловчиси, лингвомаданиятшунослик объекти сифатида концепт кўринишида намоён бўлади. Умуман олганда, луғатда миллий ғоя лисоний шахсни миллий ва умуммиллий маданият билан боғлайдиган муҳим восита сифатида қаралади.

“Оламнинг ўзбек лисоний тасвирида миллий ғоя концептлари” луғати, албатта, ўзбек тилидаги миллий ғоя концептосферасига мансуб барча ҳодисаларни қамраб олиши кўзда тутилмаган. Бунинг учун таянч концептлар аниқланиши ва луғатда тавсифланиши лозим. Чунки таянч концептлар таълим жараёнида шаклланаётган ўзбек лисоний шахси миллий ғоявий дунёқарашини, шу билан биргаликда, унинг индивидуал олам лисоний тасвирини ва концептосферасини шакллантириши учун етарли деб ўйлаймиз.

“Оламнинг ўзбек лисоний тасвирида миллий ғоя концептлари” луғати учун танланган сўзлар миллий ғоя тушунчасини ифодаловчи асосий атов бирликлари бўлади. Луғатда концептларнинг лингвомаданий қиймати унинг лисоний, маданий ва фалсафий мундарижаси, этимологик хусусиятлари, деривацион белгилари, парадигматик муносабатлари, бирикувчанлик имкониятлари асосида, халқ оғзаки ижоди ва ёзма бадиий матнлардаги қўлланишлари орқали тавсифланади.

Лингвомаданий ахборот қуйидаги манбалар асосида тайёрланади ва натижалар лексикографик талқинга бўйсундирилади:

- 1) ассоциатив тажриба ўтказилиб, ўқувчиларнинг лингвомаданий компетенцияси ишга



солинади;

2) илмий, фалсафий адабиётлар, фалсафий, филологик ва қомусий луғатлар; халқ оғзаки ижоди материаллари, ўзбек адибларининг асарлари.

Шу асосда дастлаб “Маънавият” макроконцептосфераси таркибига кирувчи ва унга нисбатан микро- мақомидаги “Миллий ғоя концептлари” ассоциатив схемаси тайёрланади. Тайёрланган схема асосида луғат тартиб берилади.

Атов бирликларининг ассоциатив тадқиқи ва талқини техник талабларга ҳам юқори даражада материал, манба такдим қилади, амалий лексикографиянинг аҳамиятини янада оширади. Борлиқ ходисалари ва улар ўртасидаги муносабат тилда қандай акс этса, ассоциатив схемаларда ОЛТ ҳам худди шундай тасвирга эга бўлиши талаб қилинади.

“Жамият” макроконцептосфераси таркибида “Сиёсат” микроконцептосфераси мавжуд бўлиб, унга “Миллий ғоя” концептосфераси “озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт” ядровий бирлиги асосида боғланади. Ана шу макро ва микромайдонларнинг ўзаро поғонавий муносабати идеографик схемаларда ҳам акс этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Тошкент: Гафур Ғулом, 2013. – 448 б.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 94 б.
3. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат / Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Г.Абдураззоқова ва бошқ.; А.Жалолов ва Қ.Хоназров умумий таҳририда /. –Т.: Шарқ, 1998. – 320 б. – Б.33-34.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. – М.: Русский язык. 1981. Т.1. – Б. 173.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5 жилдли. Ж. I. А – Д / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. ; ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.444.



HISTORICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUOCULTUROLOGY

Izzatbek Rejapov

Teacher of the second foreign language department,
Faculty of Romance and Germanic Philology, UzSWLU

Abstract: The aim of this paper is to activate knowledge about language and culture; to study manifestation of linguoculturology in several directions

Key words: Linguoculturology, anthropocentric, components, linguoculture lexicography.

Each nation reflects its own specific national traditions. That is, every nation, nation has its own national traditions, customs. In this sense, everyone will be connected with a certain culture, language, history, literature, which reflects this national identity. It is known that the language, along with being a social phenomenon, is also inextricably linked with culture.

Linguoculturology is a special scientific field that studies language and culture together – phenomena that reflect the inextricably linked nature of "language and culture", its formation and development. It is a generalization science that occurs between the sciences of culturology and Linguistics, deals with the study of phenomena such as the interaction and interconnectedness of language and culture, the formation of this linkage, as well as the reflection outside language and language as a holistic system.

It can be said that linguistics is somewhat close to the sciences of culturology and Linguistics according to the study subject, but the essence is different according to its peer-to-peer relationship to the object of study. Its restrictive status is that it studies the national-cultural specifics rules in the organization of speech communication in connection with the manifestation and expression of the culture of the people in the language, the mentality of the language, the nationality, the spirit of the language, and also deals with the identification, research of the peculiarities of the national language reflected in the language.

N.S.Trubetsky believes that "there cannot be a word without cultural connotations, that is, in comparison, there must be some kind of common parts in comparison". Such close proximity and connection of language and culture made it possible to study them on a single methodological basis. That is, language and culture.

In the study of the problem of "language and culture", it is possible to identify several concomitant cases: the first concomitant philosopher scientists (S.A. Atanovsky, G.A.Brutyanyan, E.S.Developed by Markaryan) s, it lies in the idea that as a result of the unilateral influence of Culture on the language there will be a change in the national-cultural typicalization and a change in the language²²⁰.

The term "linguoculturology" was originally co-founded on the phraseological school of V.N.Teliya, V.V.Varabyov, V.A.Maslova was seen in the affairs of others. When we talk about the formation of linguistics, almost all researchers say that the root of this theory is V.F.They claim that he would go to Humboldt in²²³. In the development of this area in this literature, A.A.Patebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xals, D.Whitney, D.U.Powell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Protien, E.Vejbiskaya, D.It is noted that the opinions of linguists such as Khaymz played an important role in²²⁴. Such views were also recognized by foreign scientists among outstanding Russian scientists in the late twentieth century in the field of linguistics. According to such views, language is not only associated with culture, but it also represents the growth of culture in itself.

On the basis of these ideas, a new science – linguistics emerged in thousands of years abroad, and in the 90s of the 20th century it was formed as a special sphere.

Linguoculturology is manifested in several directions today:

- **Linguistics** is a separate social group, which includes bright cultural ties, linguistic cultural situations, specific scientific research.
- **Diachronic linguistics.** Linguistics studies the changes in the exact transition time in the case of Ethnos.
- **Comparative linguistics.** He was engaged in a bilateral comparison of different Ethnos that appeared in linguistics.
- **Descriptive linguistics.** The work carried out in this area is numbered with a finger. Among them M.K.Golovanivska's work "French mentality from the point of view of Russian speakers"



has great role. As an object of the work, the abstract concepts in Russian and French as: fate, risk, luck, soul, mind, contemplation, idea, etc. are derived.

• **Linguocultural lexicography.** Lingvo is engaged in the compilation of local dictionaries. This direction of linguoculturology is currently developing more intensively than other directions. D.G.Maltceva's book called as country study can be an example to this. This dictionary consists of 25 chapters. In it, Language units, climatic features, animal and plant world, the history of countries, ancient customs, traditions, expressed in German realities; ancient legends, symbols representing numbers and colors; weddings, ceremonies, holidays; religious ceremonies; history of city construction and architecture etc.obtained as an object.

From the above we can say that in the creation of such linguistic dictionaries it is important to correctly define the relationship between language and culture.

In conclusion,we can say that linguocultural science is a science about culture and language, which is relevant to both fields. Representing the undoubted unity of this knowledge, the primary goal of this field, which represents the mentality, cultural characteristics of the nation and their manifestation in language, is to study the language, preserve the culture and integrate them into unity.

References:

1. Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л. Г. Ведениной. -- М., 1997. 14
2. Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1998;
3. Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1997;
4. Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1995;



PHRASEOLOGY IN THE SYSTEM OF LINGUOCULTUROLOGICAL KNOWLEDGE

Izzatbek Rejapov

Teacher of the second foreign language department,
Faculty of Romance and Germanic Philology, UzSWLU

Abstract: This paper illustrates the importance of phraseology in linguoculturology and three components that demonstrate the national and cultural value of phraseological units;

Key words: phraseological unit, linguocultural approach, national-cultural semantics of phraseological units, aphorisms;

Phraseologisms are one of the brightest, most imaginative and emotionally expressive means of language. Their appearance in the language and semantic transformation are associated with the change of eras, various changes in the social and political life of society, social transformations, etc.

When considering the problem of the national-cultural originality of phraseological units, one should take into account the fact that currently there are several different approaches to identifying the national-cultural component of phraseological units. Such a variety of research methods is due to the fact that at the present stage the language is considered in a broad existential and conceptual context of human existence, therefore, the study of phraseological units of the Uzbek language is possible only in the general cultural context of the past, present and future of native speakers.

If we consider phraseological units outside the temporal context, then one should refer to the totality of all codes already available in a culture and language, the knowledge of which is embedded within the study of such a discipline as cultural linguistics. This linguistic discipline in the field of the study of phraseological units focuses on the ratio of phraseological units and signs of culture, thereby helping to identify specific elements of the Uzbek mentality, namely the characteristics of its nonlinearity and psychologically subtle sensitivity.

To obtain a complete picture of the national and cultural characteristics of phraseological units as a linguistic system, various approaches to their study are used - linguistic, cultural, contrastive, linguocultural and cognitive.

As you know, cultural linguistics as a scientific direction in linguistics has existed relatively recently (the last quarter of the twentieth century), but has already managed to firmly take its positions on a par with other philological directions. In the everyday life of linguists, the term "cultural linguistics" appeared in connection with the works of the phraseological school of V.N. Teliya and publications V V Vorobyov, VA Maslova and others. There is still no consensus on the generally accepted definition, status, subject and methods of cultural linguistics. It is generally accepted to define linguoculturological research as the study of a language in an inextricable connection with culture [Luchinina 2004, 238-243].

If we turn to the Sapir-Whorf hypothesis, we will see that in this aspect, cultural linguistics is "an integral theoretical and descriptive study of objects as a functioning system of cultural values reflected in the language, a contrastive analysis of the linguocultural spheres of different languages (peoples) on the basis of the theory of linguistic relativity" [Brutyman 1968]. The Sapir-Whorf hypothesis is based on the idea that language plays the main role in the process of human cognition of the surrounding world [Brutyman 1968]. "Based on the material obtained in the process of studying the languages of the North American Indians, they came to the conclusion about the influence of linguistic categories on thinking.

Famous scientists E.M. Vereshchagin and V.G. Kostomarov, analyzing a similar layer of philological teaching, introduce the terms "cultural linguistics" and "linguocultural linguistics", which, in their opinion, "generally call the same area of knowledge »[Vereshchagin, Kostomarov 2005, 37], since both terms are based on the concept of culture as such and the understanding of the linguistic picture of the world as the basis of human perception of the world in general. Special attention in the study of this aspect in linguistics E.M. Vereshchagin and V.G. Kostomarov devote to the national-cultural semantics of phraseological units, which are studied within the framework of phraseology.

E.M. Vereshchagin and V.G. Kostomarov, based on the analysis of the phraseology of the Russian language, identify three components that demonstrate the national and cultural value of



phraseological units:

- phraseological units “reflect the national culture indivisibly, in a complex manner, with all their elements taken together, ie. their idiomatic meanings ”; some of them “also name the phenomena of the past and present of our country, which have no direct analogues in foreign national cultures” (for example, a certificate of commendation, sounding the alarm, a Kazan orphan, etc.) [Vereshchagin, Kostomarov 2005, 178];

- “Russian phraseological units reflect national culture in a divided manner, units of its composition ”[Vereshchagin, Kostomarov, 2005, 178]; some of them refer to non-equivalent vocabulary (for example, the phraseological unit “bast does not knit” means “drunk, drunk a lot and therefore speaks very poorly”; it can be assumed that initially this lexical unit was associated with the manufacture of bast shoes, weaving (knitting) of which was prevented by a drunken state masters);

- “phraseological units reflect the Russian national culture with their prototypes, since genetically free phrases described certain customs, traditions, details of everyday life and culture, historical events and much more” (for example, from cover to cover (about literacy), a lot is small (about children’s games), not worth a dime (about the monetary system), twisting ropes (about crafts), etc.) [Vereshchagin, Kostomarov 2005, 179].

According to E.M. Vereshchagin and V.G. Kostomarov, it is necessary to talk about the national-cultural semantics of phraseological units and aphorisms represented by proverbs, sayings, winged words, appeals and slogans, natural science formulations, delimiting these concepts.

Reference:

1. Galieva M. R – “ Cultural Linguistics” Tashkent, 2019
2. Kostomarov V.G. Vereshagin E.M. Yazik i kultura. Tri lingvostranovedcheskie konsepsii: leksicheskogo fona, rechapovedencheskix taktik i sapientemi. 2005.
3. Vorobev V.V. Lingvokulturologiya: (Teoriya I Metodi). 1997.



ҚО'ШМА СО'ЗЛАРДА МОТИВАТСИЯЛАШГАНЛИК ВА МОТИВАТСИЯЛАШМАГАНЛИК ДАРАЖАЛАРИНИНГ О'ЗARO МУНОСАБАТЛАРИ

Umarova Nigora Amirjon qizi

Teacher, Uzbek State World Languages University

E-mail: nirnazarova2991@gmail.com

Annotatsiya: Ingliz tilidagi barcha so'zlar o'zining idiomatiklik yoki motivatsiyalashganlik darajalariga ega. Albatta tilda shunday qo'shma so'zlar ham yo'q emaski, unda ushbu darajalarning ikkisi ham mujassamlashgan. Ilmiy izlanish jarayonida qo'shma so'zlarning motivatsiyalashganlik darajasiga chuqurroq yondashishdan avval ushbu tushunchaning tub mazmun mohiyati haqida fikr yuritish kerak deb topildi, va motivatsiyalashganlik tushunchasini teran o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: Qo'shma so'zlar, tushuncha, motivatsiyalashganlik, struktural-motivatsiyalashmaganlik, idiomatiklik, daraja, struktural-semantik motivatsiya

Qo'shma so'zlarning motivatsiyalashganlik darajasiga chuqurroq yondoshishdan avval ushbu tushunchaning tub mohiyati haqida fikr yuritish kerak deb topdik. Shunday qilib, qo'shma so'zning motivatsiyasi deganda nimani tushunish mumkin? Qo'shma so'zning semantik tuzilishini aniqlash uchun struktural motivatsiya tushunchasi birinchi darajali ahamiyatlilikka, ya'ni so'zning denotative, leksik ma'nolarini shakllantiruvchi qo'shma so'z komponentlarining struktural-semantik o'zaro ta'siriga ega bo'ladi. Modomiki, bunday o'zaro ta'sir qo'shma so'zning semantik qismlari va ma'nosi orqali aniqlanar ekan, u holda struktural-semantik motivatsiya – bu qo'shma so'zning struktural-semantik ma'nosidan boshqa narsa emas. Leksik ma'nodan farqli ravishda, bunday ma'no ozmi ko'pmi anglatayotgan ma'nodan chetda bo'lgan, shu vaqtning o'zida bunday so'z yasashiga zamin yaratuvchi sxematik ma'nodir. Qo'shma so'z struktural-semantik ma'nosining analogiyasini yasama so'z, masalan affiksial so'zning ma'nosidan topish mumkin. Ma'lumki, yasama so'zda ma'noning ikkinchi ko'rinishi ajratiladi: biri – so'z yasovchi ma'noda o'z natijasini ko'rsatuvchi birikma xususiyatining muayyan sxemasi, masalan, *writer* – *one who writes*, boshqasi esa – xaqiqiy, leksik – *writer* – *one who writes fiction or other composition as a professional*. Yasama so'zda asos va so'z yasovchi formantdan farqli ravishda ikki mustaqil ma'noga ega bo'lgan ega bo'lgan asoslarning ma'nolari asosiy vazifani bajarar ekan, qo'shma so'zning o'ziga xos xususiyati yasama so'zning xususiyatidan ajralib turishi kerakligi barchaga ma'lum.

O.S. Axmanovanning “motivatsiyalashgan” tushunchasiga tayansak, motivatsiyalashgan qo'shma so'z – bu shunday qo'shma so'zki, u tarkibini ya'ni ma'nosini ifodalovchi so'z birikmasi bilan ozmi ko'pmi darajada bevosita o'zaro munosabatni aniqlaydi. Bu tushunchaning eng sodda ko'rinishda qo'llanilishi *home-made* (*made at home*) so'zining motivatsiyalashganligini bildiradi. *House-broken* (*trained to live in a house*) so'zi esa motivatsiyalashmagan hisoblanadi, chunki uning ma'nosi so'z birikmasi *broken+Prep+house* bilan emas, balki qo'shimcha elementlar (*to live*) bilan ifodalanyapti. Umuman olganda qo'shma so'zning motivatsiyalashgan yoki motivatsiyalashmagan kabi tushunchalarini to'la qabul qilsa bo'ladi. Biroq, shu narsaga e'tiborni qaratish kerakki, *home-made* so'zi birinchi komponenti *a special dish of this restaurant is home-made noodles* bo'lib ma'nosini yoqotgan ko'chma ma'noni ochib berdi. Bu yerda leksik motivatsiya yoqotiladi: *home-made* so'zi ortiq *made at home* ma'nosini bermaydi, va ma'lumki, u “taom turi, ko'rinishi” ni anglatadi. Bu bilan birga, *home* va *made* ning mutloq sof semantik o'zaro ta'siriga ko'ra *home-made* qo'shma so'zi ushbu ikkinchi ma'noda ham *made at home* so'z birikmasiga ishora qiladi. Shu bilan birga yana bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz kerakki, *home-made* so'zida struktural motivatsiyalashganlik meros qilib olingan (yoki yoqotilmagan) hisoblanadi. Meros qilib olingan struktural motivatsiyalashganlikdan farqli ravishga qo'shma so'zlarda azaliy leksik idiomatiklikda avvaldan mavjud struktural motivatsiyalashganlikni ham uchratish mumkin.

Aksincha, shunday qo'shma so'zlar mavjudki, so'z birikmasida неразложимость bilan komponentlarining leksik idiomatikligida xarakterlanadi (ya'ni struktural-motivatsiyalashmagan). Ularning struktural motivatsiyalashmaganligi ularning komponentlari bevosita munosabatda bo'lmagan, u yoki bu ma'noviy qisqarishi orqali xarakterlanuvchi faktning natijasi hisoblanadi. *Hand bridge* (tutqichli kichik ko'priq) so'zida so'z (va u orqali ifodaangan predmet) bevosita



bog'lanmagan. Predmet "qo'l" bu yerda "tutqich" predmet bilan bevosita bog'liq, uning ma'nosi esa *hand bridge* so'zida mavjud emas. Qo'shma so'zning bunday semantic tuzilishining bevosita natijasida bu so'zni so'z birikmasida u yoki bu avvaldan belgilangan struktura bilan ifodalab bo'lmasligidadir: *hand bridge* – *bridge+?+hand*. Shu bilan birga ikkala komponentlar ham tog'ridan tog'ri leksik ma'noda ishlatiladi, va shu tarzda, buni bir butun idiomatik so'z deb hisoblash mumkin emas.

Qo'shma so'zda struktural motivatsiyalashmaganlik – bu murakkab, yaxlit bo'lmagan, o'zida turlilikni mujassamlashtirgan, leksiko-semantik murakkablik bilan yig'indi sifatida qatnashuvchi hodisa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахманова О.С. – Словарь Лингвистических терминов. М., 1966
2. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка, - М.: высшая школа, 1973
3. Амосова Н.Н. – Этимологические основы словарного состава современного английского языка. М., 1956.
4. Ахеро А.А. – Сложные прилагательные в современном английском языке, Автореф. Канд. Дисс. Рига, 1958
5. Арутюнова Н.Д. – Сложные имена существительные и способы их образования в современном испанском языке. Канд. Дисс. М., 1953
6. Ахманова О.С., А.И. Смирницкий – Образования типа *stone wall*, *speech sound* в английском языке, 1952



ҚО'ШМА СО'ЗЛАР СЕМАНТИКАСИДА ИДИМАТИКЛИК ДАРАЖАСИНИНГ АНАМИЯТИ

Umarova Nigora Amirjon qizi

Teacher, Uzbek State World Languages University

E-mail: nirnazarova2991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda qo'shma so'zning semantik strukturasi hamda idiomatiklik darajasi ko'rib chiqiladi. Shubhasiz ushbu hodisalarning bari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ko'p ma'nolilik qo'shma so'z bilan rivojlanishida uning ko'chma ma'nosi alohida leksik nuqtai nazaridan idiomatik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Leksik birlik, komponent, ko'chma ma'no,, idiomatiklik darajasi, struktural-semantik motivatsiya, yaxlit tuzilganlik

Qo'shma so'zning idiomatikligi tahlilida avvaldan mavjud bo'lgan va ortirilgan idiomatiklikni farqlash kerak bo'ladi. Avvaldan mavjud idiomatiklik darajasi bilan bo'lgan qo'shma so'zlar – bu shunday so'zlarki, ular yasaliş vaqtida idiomatik bo'lib, hech qachon idiomatik bo'lmagan ma'noda ifodalanmaydi. Misol uchun, *gate-crasher* faqat chaqirilmagan mehmon, chiptasiz tomoshabin kabi ma'nolarga ega bo'lib, u darvozani buzuvchi degan ma'noni anglatmaydi va unga berilgan izohda na birinchi va na ikkinchi komponentlar ishtirok etgan. Shunday vaziyat paydo bo'lsa, hattoki tanlov aynan, *gate-crasher* so'ziga to'g'ri kelsada, bu so'z boshqa tusga kiradi, ya'ni omonimik yasalişga ko'ra va nutqiy kompozitsiyaga ko'ra, *gate-crasher* so'zining idiomatikligiga aloqasi bo'lmagan so'zga aylanadi. Shu bilan birga shuni payqash mumkinki, tilda idiomatik ma'nodan idiomatik bo'lmagan ma'no vujudga kelish hodisasi mavjudligi dargumondir.

Qo'shma so'zning ko'p ma'noliligi va o'zlashtirilgan idiomatikligi so'z yasovchi tahlilda emas, balki leksik sohada joylashgan, zero qo'shma so'z ma'nosining o'zgarishi asosan qo'shma so'z singari uning tuzilishi bilan bog'liq emas. Ma'noning o'zgarishi qo'shma so'z tayyor leksik birlik ko'rinishida funksiyani bajarayotgan vaqtida sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar leksik birliklarning ko'p ma'noligi rivojlanadigan qonuniylikning ham izidan boradi, asosan o'z ma'nosidan ko'chma ma'no tomon. Shunday ekan, *night cap* so'zi o'zining ma'nosida tungi qalpoq ma'nosini anglatadi, ko'chma ma'noda esa – kechki finjon choy, bu bilan birga so'nggi ma'no – yakuniy sport musobaqasi. Bunday ko'p ma'nolikning rivojlanish mantiqi yaqqol sezilarlik, u bajarilayotgan ish yoki harakatni yakuni, tugashi va nihoyasini anglatuvchi ma'noni o'zida mujassamlashtiruvchi so'zning semantik tuzilishining shunday qismida foydalaniladi.

Biroq, ta'kidlab o'tish kerakki, qo'shimcha ma'noni qo'shma so'z bilan shakllanishi qo'shma so'z yasaliş jarayoniga hech qanday aloqasi yo'q. bu va shu kabi vaziyatlarda qo'shma so'zdagi qo'shimcha ma'nolarni rivojlanishi hech qanday yo'l bilan qo'shma so'zning kompozit mohiyatiga tegishli bo'lgan sof leksik-semantik jarayon hisoblanadi.

Leksik va struktural idiomatiklik o'rtasidagi o'zaro ta'sir juda bir qiziq holat hisoblanadi. Idiomatiklikning ushbu ikki ko'rinishi bir birini aslo taqazo qilmaydi va hech ham to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lmaydi. Masalan, *gate-crasher* so'zining idiomatikligi motloq shaffof strukturaga ega. *Gate-crasher* so'zi *crasher of the gate* so'ziga sintaktik jihatdan to'liq ekvivalent ekanligiga hech qanday shubha yo'q. shu tarzda, sintaktik strukturaning shaffoffligi leksik idiomatiklik bilan parallel namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, shuni ta'kidlash mumkinki, idiomatiklikning zarur sharti yaxlit tuzilganlikni shunday vaziyatida qatnashadi. Boshqa so'z bilan aytganda, yaxlit tuzilganlik muhim shart-sharoit va idiomatiklikning vositasi bo'lib ishtirok etadi.

Leksik idiomatiklik shaffof bo'lgan sintaktik struktura bilan parallel namoyon bo'lsa, u holda teskari hodisa ham o'z o'rniga ega, ya'ni qo'shma so'zning komponentlari ularning bevosita, ko'chma va idiomatik ma'nolarda ishlatilishi struktural idiomatiklikning "to'rida" paydo bo'lishi mumkin. *Bird-stone* qo'shma so'zida ham birinchi ham ikkinchi komponent o'zining bevosita ya'ni to'g'ridan to'g'ri ma'nosida namoyon bo'ladi – qush va tosh, ammo qo'shma so'zning o'z ma'nosi bizga noma'lum, zero bu komponentlarning semantik o'zaro munosabati bizga qorong'u. ular, ya'ni bu komponentlar bevosita o'zaro munosabatda emas, ularning ma'noviy o'zaro aloqasi sintaktik atribyutiv munosabatga mos kelmaydi. Bundan tashqari, qo'shma so'zning ma'nosi shu narsaga guvohki, qush va tosh so'zlari orqali ifodalangan predmetlar o'rtasidagi bevosita ma'noviy munosabatning o'zi aslo mavjud emas. *Bird-stone* – qush skeletining izi saqlanib qolgan tosh. Bu



shuni anglatadiki, bu vaziyatda ushbu ikki predmet (qush va tosh) o'rtasidagi semantik munosabat bevosita emas, balki murakkab-vositalidir: "tosh – qush izi - qush", bunda "iz" tushunchasining o'zi qo'shma so'zda bizga bu so'zni struktural-idiomatik yoki struktural – motivatsiyalashmagan deb nomlashimizga zamin yaratib beruvchi, ochiq ifodalangan shakl mavjud emas. Qo'shma so'zlarning semantik munosabatda komponentlar o'rtasidagi o'zaro qanday bog'langanligi bizga ma'lum emas.

Shu tarzda, qo'shma so'zning ma'nosi g'oyat turli elementlarning yeg'indisi hisoblanadi. Qo'shma so'zning ma'nosi uning so'z birikmalari ma'nosi bilan o'zaro munosabati xususiyatiga, haqiqiy leksik ma'nosida joylashgan struktural-semantik ma'no uchun asosni vujudga keltiruvchi uning struktural-semantik tuzilishiga tobe'likdadir. Boshqa tomondan esa, qo'shma so'zning ma'nosi uning leksik to'ldiruvchiligini keltirib chiqaruvchi qatorlar va ma'nolar bilan qo'llanilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахманова О.С. – Словарь Лингвистических терминов. М., 1966
2. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка, - М.: высшая школа, 1973
3. Амосова Н.Н. – Этимологические основы словарного состава современного английского языка. М., 1956.
4. Ахеро А.А. – Сложные прилагательные в современном английском языке, Автореф. Канд. Дисс. Рига, 1958
5. Банкевич Л.В. – Способы образования сложных глаголов в современном английском языке. 1959
6. Гутерман Н.Г. – Сложные существительные в современном английском языке. Канд. Дисс. Л., 1955



OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA ERONIY QATLAMGA OID O‘ZLASHMA QO‘SHIMCHALAR ASOSIDA SO‘Z YASALISHI

Marhabo Ahmedova
UrDU “O‘zbek tilshunosligi”
kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Ogahiy tarixiy asarlarida eroniy tillardan o‘zlashgan yasovchilar bilan so‘z yasalishi, uning o‘ziga xosliklari eski o‘zbek tilidagi boshqa manbalar, xususan, Alisher Navoiyning ayrim asarlari bilan qiyosan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: eski o‘zbek tili, so‘z yasalishi, yasovchi qo‘shimchalar, yasalma, tarixiy asar.

Eski o‘zbek tilida eroniy qatlamga oid qo‘shimchalar bilan hosil qilingan hosila lug‘aviy birliklar miqdori ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, quyida ularning ayrimlari xususida so‘z yuritimiz.

Marzbon مرزبون so‘zi hozirgi fors tilida quyidagi ma‘nolarni anglatadi: 1. Chegarachi; eskirgan: chegara istehkomi; 2. Tarixiy: marzbon (sosoniylar Eronida chegara viloyat hokimi); 3. Eskirgan: hokim, voliy¹. Fors tilida ushbu so‘zning *marzdor* مرادور shakli ham bor. Bu so‘zning o‘zagi bo‘lgan *marz* مرز so‘zi “Avesto”da *merzu* shaklida biror o‘lka chegarasi degan ma‘noni anglatadi. Mazkur elementlar armanchadagi *marz*, chot tilidagi *marka* (chegara belgisi), qadimgi irlandcha *bruig*, *mruig*, lotincha *margo* (chekka, qirg‘oq) so‘zlari bilan umumiy o‘zakka ega².

Marz so‘zining to‘rtburchak shakliga keltirilib, atrofi baland qilingan ekin maydoni degan ma‘nosi ham bor. O‘zbek tilidagi *marza* xuddi shu o‘zakdan deyish mumkin. Tarixiy so‘z sifatida *marzbon* quyidagi ma‘nolarni anglatganini ko‘rish mumkin:

1. Chegarachi, soqchi:

Qilib tortgan chog‘da tig‘i zabon,

Ki qilmay tuman tig‘lik *marzbon*. (“Saddi Iskandariy”)³.

2. Chegara viloyat hokimi.

“Riyoz ud-davla”da ham mazkur so‘zning ikkinchi ma‘noda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin: Ul jumladin biri ulkim, Daragaz qo‘rg‘onining hokimi oliyshoni Beklarxonkim, ul havolining *marzbonidurur...* (RD, 261^b). Parchada zikr etilgan Daragaz qo‘rg‘oni Saraxs viloyatida bo‘lib, Eron Xurosoni bilan chegara hududda joylashgan. Mashhur Allohu Akbar cho‘qqisining shimoliy tarafida joylashgan bu hudud hozirgi kunda ham Turkmaniston Respublikasi va Eron o‘rtasidagi chegarada⁴. Xullas *marzbon* qadimgi Aroxda viloyat hokimlariga berilgan unvon. Dastlab chegaraga yondosh o‘lkaning hokimi *marzbon* deb atalgan. Hozirgi tilda posbon – chegarachi ma‘nosida ishlatiladi. Tabariy, Balazuriy kabi tarixchilar asarlarida ham *marzbon* so‘zi uchraydi. Suryoniy tilida *marzbano*, *marzabono* tarzida, eski arman manbalarida *marzipan*, *marzvan* shaklida ishlatilgan⁵.

Posbon پاسبان so‘zi ham *posva* -bon qismlaridan iborat.

Pos پاسبان so‘zi quyidagi ma‘nolarni anglatadi: 1. Saqlash, qo‘riqlash. 2. Sutka (kecha-kunduz) ning sakkizdan bir qismi, har bir bo‘lagini *posiy* پاسبان deyishadi. 3. Navbat.

Mazkur so‘z “Avesto”da *pāthra*, pahlaviyda *pās*, qadimgi fors tilida *pāsa* shaklida qo‘llangan⁶. *Pos*ning dastlabki ma‘nosiga asosan eski o‘zbek tilida “pos tutmoq” *saqlamoq*, *qorovullamoq*, *qo‘riqlamoq*, *posbon qo‘ymoq* ma‘nolarini anglatadi:

Qal‘adavrin kechib tutar edi pos,

Ko‘nglida biym yo‘q, ichinda haros. (“Sab‘ai sayyor”)⁷.

“Riyoz ud-davla”da *pos*ning ushbu ma‘nosi asosida *pos tutmoq* fe‘li *hurmat qilmoq*, *hurmat*

¹ Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983. – С.494.

² ص. ۴۱۰ ج. ۱۳۸۶. ریبک ریما. نارمت. نی عم دمحم رتكد امامتہ اب. عطاق نارمب. یزیربت فلخ نب دمحم نیدل اسمش ۱۹۸۶

³ Дадабоев Х.Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 79.

⁴ ص. ۱۳۷۵. ریبک ریما. نارمت. ۵ دلج. یسراف گنهرف. دمحم نی عم ۵۲۳

⁵ ۳۵۲. ص. ۱ دلج. ۱۳۸۶. ریبک ریما. نارمت. نی عم دمحم رتكد امامتہ اب. عطاق نارمب. یزیربت فلخ نب دمحم نیدل اسمش

⁶ ص. ۱ دلج. ۱۳۸۶. ریبک ریما. نارمت. نی عم دمحم رتكد امامتہ اب. عطاق نارمب. یزیربت فلخ نب دمحم نیدل اسمش ۳۵۳.

⁷ Дадабоев Х.Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 79.



saqlamoq ma'nosini ham kasb etganini ko'ramiz: ...Shahzodai davlatpanoh xadivi xurshidkulohning iltimosin *pos tutub*, barcha tarokima ahlining a'yoni va mute' o'lg'on ellarning xonig'a... ruxsat berdi. (RD, 263^a).

Posning kecha-kunduzning bir bo'lagi ma'nosida Alisher Navoiy asarlarida ham uchratish mumkin:

Urmag'aysen *posbonlig'* lofi ko'k qo'rg'onida,
Voqif o'lsang, ey ajal, hajrin tuni bir *posidin*¹.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "bir pas" birikmasida "pas" *posning* ayni shu vaqt bo'lagi ma'nosidan kelib chiqqan. Bu so'zning *navbat* ma'nosini ham Alisher Navoiy asarlarida uchratish mumkin:

Ani asrarlar erdi *pos* birla,
Yo'lida qum to'shab olmos birla².

Ayrim adabiy manbalarda *pos* so'zining o'zi *posbon*, *qo'riqchi*, *muhofiz* ma'nolaridan ishlatilgan. Buni, jumladan, "Shohnoma"da ham ko'rish mumkin:

سان ش ار درخشن یرفأ تسخن
س اپ هس ن آ و تس ا ن ا ج ن اب هاگن
ن اب ز و ش و گو تس ا م ش چ و ت س اپ هس
ن امگ ی ب دب و کی ن دسر هس نی زک³

Tarjimasi: avvalo aql yaratilganini bil, u jon va uch posbonning ham qo'riqchisidir. Sening uch posboning ko'z, quloqva til bo'lib, undan yaxshi yomon narsalar yuzaga kelishi begumondir.

Ogahiyning tarixiy asarlarida *posbon* so'zining quyidagi ma'nolarda qo'llanganini ko'ramiz.

1. Qo'riqchi, posbon:

Bo'lub amnu farog'atning makoni,
Zuhal har kecha oning *posboni*. (RD).

2. Harbiy qarorgoh, xon qarorgohi: ...oq uyluk soruqlardin Jonalibek va Otaniyozbekni ostoni davlat *posboniga* undab, elchi yo'sunlig' soruq muonidlari orasig'a irsol qildi. (RD, 293^a).

Eroniy qatlamga mansub leksikada mustaqil so'zlarning birikuvidan hosil bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Bunday so'zlarning tarkibini arabcha va forsiy (*tahniyatnoma*, *aroyiznoma*, *fathnoma* kabi), forsiy va forsiy (*poytaxt*, *sipohsolor* kabi), turkiy va forsiy (*ko'runishxona* kabi) asoslar tashkil qiladi.

Ko'rinadiki, eroniy qatlamga mansub so'zlarning tarkibiy tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining bir-birlariga samarali ta'sirini ko'rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983.
2. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2003.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Ilmiy-tanqidiy matn. / Tuzuvchi: Porso Shamsiyev. – Toshkent, 1963.

¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.318.

² Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. Илмий-танқидий матн. / Тузувчи: Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1963. – Б.153.

³ ۱۶،۷۵ ص . ۱۳۷۹ . تيمس . نارمت . ۱ دلج . نانتساب ممان . نیدلا لالاج ریم یزازک



TARIXIY ASAR ONOMASTIKASI TADQIQI MUAMMOLARI

Marhabo Ahmedova

UrDU "O'zbek tilshunosligi"

kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tarixiy asarlarda onomastikaning tarixiy tadqiqi, uning o'ziga xosliklari, xususan, onomastik birliklarga tarixiy nuqtayi nazardan yondoshuv qiyosan yoritilgan.

Kalit so'zlar: jahon onomastikasi, qiyosiy-tarixiy metod, onomastik tadqiq, qiyosiy-chog'ishtirma metod.

Jahon onomastikasi ham, jumladan turkiy onomastika ham o'z taraqqiyoti davomida quyidagi uch bosqichni bosib o'tgan:

a) onomastik materialni oddiy qayd qilish davri yoki noilmiy davr. XIX asrgacha barcha fanlar singari onomastika fani ham qiyosiy-tarixiy metod shakllangunga qadar bo'lgan davr xuddi shunday xususiyatga ega edi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalarning asarlarida joy nomlarini, kishi ismlarini oddiy qayd qilish hollari ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" bo'yicha tuzilgan indeks-lug'at materiallariga qaraganda, Mahmud Koshg'ariy asarida *Abu Bakr, Badruq, Barman, Barsg'an, Tabdu, Tahmuras* kabi kishi ismlari (antroponimlar), *arab, alqa, aramut, afshar, og'uz, bashg'irt, basmil, barsman, tuxsi, tubut, tat, salg'ur, rus, chumul, qarluq, uyg'ur* kabi xalq, urug', qabila nomlari (etnonimlar), *Ertuch, Balu, Barman, Marv, Sulm, Talas, Tashkand, Udun, Qifchaq* kabi shahar va qishloq nomlari (toponimlar), *Ertish, Firat, Qaz suvi, Hind, Etil* kabi dengiz, ko'l, daryo, soy nomlari (gidronimlar), *Eran tuz, Baqir soqum, Yikar* kabi planeta, yulduz va fasl nomlari (kosmonimlar) singari onomastik birliklar qo'llangan¹.

Xuddi shunday boy onomastik material Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oz Bahodirxon asarlarida ham qo'llangan. Masalan, B.Bafoev va Sh.Yoqubovning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy asarlarida ikki mingdan ortiq onomastik birliklar qo'llangan². "Boburnoma"da 1406 ta kishi ismi (antroponim), 1100 dan ortiq joy nomi (toponim), 277 ta qavm-qabila va nasl-nasab nomi (etnonim), 414 ta hayvon va o'simliklar nomi, 40 ta kitob va risola nomi (biblionim) tilga olingan³. M.Turdebekovning hisob-kitoblariga qaraganda, Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida 1357 ta atoqli ot mavjud. Shulardan 880 tasi antroponimlar, 286 tasi toponimlar, 118 tasi etnonimlar, 51 tasi gidronimlar, 22 tasi esa oronimlardir⁴. Umuman, o'zbek tarixiy onomastikasi sohasida o'z tadqiqotchilarini kutayotgan muammolar ham anchagina bor⁵;

b) onomastikasining fan sifatida shakllanish davri. Bu fanning ildizlari Evropa va rus tilshunosligida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan. A.X.Vostokov, A.I.Sobolevskiy, A.A.Shaxmatov, M.Fasmer, S.K.Kuznetsov, P.L.Mashtakova kabi olimlarning asarlarida rus tilidagi onomastik materialni to'plash va tahlil qilish haqidagi dastlabki ma'lumotlar keltirilgan edi;

d) ilmiy yoki sof onomastik davr. Bu davr XX asrning 20-yillaridan hozirgi kungacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Bu davrda onomastik material tilning leksik, fonetik, morfologik va boshqa sath birliklari singari alohida to'planib, xilma-xil yo'nalishlarda tadqiq etiladigan bo'ldi. Lekin tilning onomastik materiali ko'pincha leksik material tarkibida tahlil qilindi. Geografik nomlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar, tarixchilar va geograflarning o'zaro bahslari, muloqotlari tufayli toponimika alohida, mustaqil fan sifatida talqin etildi. Masalan, taniqli toponimist olim E.M.Murzayev toponimikani lingvistik, tarixiy va geografik tahlil metodlaridan

¹ Девону луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ.Абдурахмонов, С.Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 387-405.

² Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.- Б. 37-44; Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. НДА. – Тошкент, 1994. – Б. 3-20.

³ Холманова З. "Бобурнома" лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 19-21.

⁴ Турдибеков М.Т. Абулғози Баҳодирхоннинг "Шажарайи турк" асари ономастикаси. НДА. – Тошкент, 2001. – Б. 9.

⁵ Бегматов Э., Хусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. № 5-6. – Б. 21-27.



foydalanuvchi mustaqil fan deb hisoblaydi. Taniqli tilshunos olim B.V.Gornungning fikricha, atoqli otlar har bir til lugʻat sostavining tarkibiy qismi sanaladi hamda tilshunoslik sohaslaridan biri boʻlgan leksikologiyaning oʻrganish obyektidir. Shu sababli tilshunoslarni toponimlarni til materiali sifatida oʻrganishdan mahrum etish, cheklash mumkin emas. Shu bilan birga toponimik materialning xususiyatlarini oʻrganishga tarixchining ham, geografning ham, etnografning ham haqqi bor.

Hozirgi zamon nomshunosligi materialistik dialektikaning qonun va kategoriyalariga tayanib ish koʻradi hamda onomastik material tahlilida quyidagi metodlardan foydalanib ish koʻradi: tasviriy metod, tarixiy metod, qiyosiy-chogʻishtirma metod, areal metod, semiotik metod, stilistik metod, lingvopsixologik metod, statistik metod kabilar. Baʼzan onomastik materialni oʻrganishda bu metodlarning bir nechtasidan birdaniga foydalaniladi. Quyida ana shu metodlarning ayrimlari haqida qisqacha toʻxtalib oʻtishni lozim topdik.

Tasviriy metod. Maʼlumki, tasviriy metod barcha ijtimoiy-tarixiy va tabiiy fanlarda keng qoʻllaniladi¹. Shunga koʻra bu metod boshqa metodlar orasida qoʻllanish koʻlami jihatidan eng yuqori oʻrinda turadi. Bu metoddan foydalanishning dastlabki bosqichida material toʻplanadi, kataloglar (kartochkalar)ga tushiriladi hamda ular sistemalashtiriladi. Bu esa onomastik materialning turli qirralarini sezish, bilish uchun katta imkon beradi. Masalan, toponimlarni tasviriy metod asosida oʻrganishda togʻ, qir, adir nomlari, qishloq, shahar, koʻcha, mahalla, guzar nomlari roʻyxati asos qilib olinadi. Xuddi shuningdek, daryo, koʻl, buloq, ariq, kanal, soy nomlari roʻyxati gidronimlarni tasviriy metod bilan oʻrganishda katta yordam beradi. Ana shu roʻyxatlar materiali asosida keyinchalik onomastik birlik (toponim, gidronim kabi)larning lugʻatlari tuziladi. Masalan, G.P.Smolitskayaning "Oka basseyni gidronimlari" (1976), Stefan Ilchevning "Bolgar ism va familiyalarining lugʻati" (1969), E.Begmatovning "Oʻzbek ismlari maʼnosi" (2007: 2010) kabilar shular jumlasidandir.

Onomastik birliklarni oʻrganishning tasviriy metodi boshqa metodlar kabi tarixiy jihatdan oʻzgaruvchan xarakterga egadir. Bu metod oʻz qoʻllanish doirasini, tahlilga tortilgan material koʻlamini tilshunoslik ilmining yutuqlari bilan bogʻliq holda oʻzgartirib, kengaytirib boradi.

Tarixiy metod. Har qanday fanda ilmiy tahlilning asosiy tamoyillaridan biri tarixiylikdir. Onomastik material tahlilida tarixiylik tamoyili juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki onomastik materialda xalqning oʻtmish tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi ildizlarini sezish qiyin emas. Shuning uchun onomastik materialni tarixiy-etnografik nuqtayi nazardan oʻrganishga birinchi navbatda tarixchilar qiziqish bildirganlar.

Onomastik birliklarga tarixiy nuqtayi nazardan yondoshuv tarixiy, arxeologik va etnografik maʼlumotlarni, faktlarni onomastika doirasiga keng tatbiq etishga olib keldi. Shu bilan birga onomastik leksika tarixiy aspekt (qiyosiy-tarixiy va tarixiy-qiyosiy yoʻnalishlar) da keng oʻrganildi.

Onomastikaga lingvo-tarixiy metodni qoʻllashda A.M.Selishev, A.I.Popov, V.A.Nikonov, B.A.Serebrennikov, V.N.Toporov, O.N.Trubachev, Y.A.Karpenko kabi rus olimlarining, V.Georgiyev, V.Tashitskiy, S.Rospond, F.Bezglay singari chet ellik olimlarning xizmati katta boʻldi.

Onomastik birliklar tarixiy nuqtayi nazardan oʻrganilganda quyidagi ikki yoʻnalishga amal qilinadi: a) onomastik materialning tarixiy holatidan hozirgi koʻrinishigacha boʻlgan oʻzgarishlarni aniqlash usuli (perspektiv tahlil usuli); b) onomastik materialning hozirgi holatidan uning tarixiy holatigacha boʻlgan tarixiy rivojlanish jarayonini aniqlash (retrospektiv tahlil usuli). Har ikki tahlil yoʻnalishidan ham asosiy maqsad onomastik birliklarning rivojlanish, oʻzgarish jarayonlarini aniqlashdan iboratdir.

Qiyosiy-chogʻishtirma metod. Onomastik birliklar qoʻllanish xususiyatiga koʻra hududlararo farqli tomonlarga ega. Ana shunday farqlar qiyosiy-chogʻishtirma metod yordamida aniqlanadi. Qiyosiy tahlil uchun har qanday onomastik birliklar (toponimlar, gidronimlar, urbanonimlar, oykonimlar, odonimlar, antroponimlar va boshqalar) tanlab olinadi hamda ular orasidagi umumiy va farqli holatlar belgilanadi. Masalan, oʻzbek antroponimlari orasida umumturkiy qatlam bilan birga forscha-tojikcha, arabcha, soʻgʻdcha, moʻgʻulcha, xitoycha soʻzlar ham mavjud, ularni aniqlash uchun tadqiqotchi turli tillarga oid lugʻatlarga, tarixiy-etimologik manbalarga murojaat qiladi. Xuddi shunday holatni toponim, gidronim kabi boshqa onomastik birliklarda ham

¹ Бушуй Т.Г., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 101-109.



uchratish mumkin. Masalan, *Ashshadaroz*i – forscha-tojikcha izofa. Xuddi shunday tadqiqotlar orqali xorazm musiqa san'ati asarlari rivojidadagi tarixiy evolutsiyani ham aniqlash mumkin. Nomshunoslikda qiyosiy-chog'ishtirma tadqiqotlar sinxron va diaxron aspektlarda olib boriladi. Bunday kuzatishlar sof lingvistik, lingvosotsiologik, etnomadaniy. Shu asosda tillar orasidagi onomastik universalialarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi¹.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1967.
2. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1983
3. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Turdibekov M.T. Abulg'ozii Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasi. NDA. – Toshkent, 2001.
5. Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiyev B. O'zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari // O'zbek tili va adabiyoti, 1992.
6. Bushuy T.G., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007

¹ Суперанская А.В. Ономастические универсалии // Восточнославянская ономастика. – М.: Наука, 1972. – С. 348-356.



ИЖТИМОЙ ЖИХАТДАН ЧЕГАРАЛАНГАН ҚАТЛАМ – СЛЕНГ ҲАҚИДА

Нуритдинова Райҳона Нумоновна

Фарғона давлат университети, филология факультети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ижтимоий жихатдан чегараланган сўзларнинг бир тури сленг ҳисобланади. Жаҳон тилшунослигида *сленг* атамаси XVIII асрдан сўнг қўлланилган, ундан кейинги даврда эса бирликнинг нутқ ходисаси сифатида қарала бошланган.

Калит сўзлар: сленг, нутқ ходисаси, арго, вульгар сўзлар, жаргон.

Ижтимоий жихатдан чегараланган сўзларнинг яна бир тури сленг ҳисобланади. Жаҳон тилшунослигида *сленг* атамаси XVIII асрдан кейин қўлланилгани, ундан кейинги даврда бирликнинг нутқ ходисаси сифатида қўлланилиши жуда узоқ даврни ўз ичига олганини кўришимиз мумкин[1:10], ўзбек тилшунослигида эса мазкур атама XXI асрнинг бошларида ёзма манбаларда қўлланила бошланди. Бунга сабаб сифатида инглиз тилининг таъсир доираси кенгайганлигини олишимиз мумкин. Чунки бу давргача бўлган илмий манба, дарслик ва қўлланмаларда деярли сленг атамасини учратмаймиз.

Сленг Фарб тилшунослигида ўзига хос ўринга эга. Мазкур қатлам бўйича бир қатор олимлар илмий изланишлар олиб боришган[2]. Ўзбек тилшунослигида сленг бўйича дастлабки монографик пландаги тадқиқот Ғ.Ҳ.Рахимовнинг «Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари» номли диссертацияси ҳисобланади[3]. Мазкур илмий ишда асосан Фарб сленгига урғу берилса-да, назарий фикрлар ўзбек тилшунослигига тегишли эканлиги билан аҳамиятлидир. Кейинги монографик тадқиқот Д.Н.Сатимовага тегишли бўлиб, бунда кўпроқ ўзбек ва инглиз сленглари қиёсий планда таҳлил қилинади. Ҳар икки диссертацияда кўтарилган масалалардаги айрим жузъий қарама-қарши фикрларни ҳисобга олмаганда, бири иккинчисини тўлдирган.

Д.Н.Сатимованинг “Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг қиёсий таҳлили” номли диссертациясида сленг бўйича изчил тадқиқотлар олиб борилган. У ўзидан илгариги тадқиқотчиларнинг илмий изланишларига таянган ҳолда сленгнинг таркибий қисмларини янада кенгайтиради. Сленг бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижасида қўйидаги хулосаларга келинган:

1. Сленг – ёшларнинг тил элементлари мажмуаси. Мулоқотга янгилик ва замонавийлик руҳини олиб кириш, коммуникацияда хуш кайфият яратиш мақсадида жонли ва янгича мулоқот туридир;

2. Унда ҳеч қандай ғаразли ва қўпол хусусиятлар акс этмайди. Шунинг учун арго ва вульгаризмдан генетик ва функционал жихатдан фарқ қилади;

3. Қасбий чегараланган эмас. Шу билан у жаргондан фарқ қилади.

4. Замон ўзгариши билан янгиланиб туради. Шунинг учун унинг энг асосий белгиси замонавийлигидир.

5. Хазил-мутойиба хусусияти мавжуд. Мулоқотда экспрессивликни таъминлаш, мароқсиз атмосферани бартараф этиш, монотон оҳангдан қочиш, катта ёшлилардан ажралиб туриш мақсадларини кўзлайди⁴⁰.

Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, ўзбек тилшунослигида сленг дейилганда ёшлар тилидаги маҳсус нутқ назарда тутилади. Лекин уни ёшлар жаргонидан фарқлаш даркор. Ёшлар сленги умумий сленг хусусиятларига мос равишда кенг ижтимоий доира, ёрқин ифодаланган экспрессия, хазил-мутойиба характерли, ижтимоий қатламдаги турли хил соҳадаги ёш авлод вакиллари хослик каби хусусиятларга эга. Ёшлар жарғони эса чекланган тор доирада, яъни ижтимоий гуруҳ доираси устун туради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Сатимова Д.Н. Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг қиёсий таҳлили: филол. фан. фалсафа док.(PhD) дисс.автореф. – Андижон, 2020.

2. Hotten J. C. A Dictionary of Modern Slang, Cant and Vulgar Words, Used at the Present Day in the Streets of London. – London, 1920.

3. Рахимов Ғ.Ҳ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: филол. фан. номз. (DSc).дисс. – Самарқанд, 2006.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 32-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000